

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**  
**MAGISTRATURA BO‘LIMI**

**Qo‘lyozma huquqida**  
**UDK 811.512.133/316.647.8/008**

**RO‘ZIMURODOVA MEHINBONU SHODIQL QIZI**  
**STEREOTIPLAR- MILLIY MADANIYAT IFODACHISI**  
**70230101-Lingvistika: o‘zbek tili mutaxassisligi bo‘yicha magistr darajasini**  
**olish uchun taqdim etilgan**

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:**

**Phd. N.Qurbonazarova**

**Termiz – 2023**

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 24-yanvar №2-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.**

**Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.**

**Magistrlik dissertatsiyasining elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.**

**Dissertatsiya manzilining QR-kodi:**



**Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 48-uy.)**

<b>Ilmiy rahbar</b>	_____	<b>PhD. N. Qurbonazarova</b>
<b>Kafedra mudiri:</b>	_____	<b>PhD. N. Amonturdiyev</b>
<b>Magistratura bo‘lim boshlig‘i</b>	_____	<b>PhD. A.B. Narbayev</b>

**70230101 - Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi magistranti Ro`zimurodova  
Mehinbonu Shodiqul qizi "Stereotiplar- milliy madaniyat ifodachisi"  
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi**

**ANNOTATSIYASI**

**Tayanch so'zlar:** stereotip, lingvokulturologiya, metafora, antistereotip, mental stereotip, madaniy stereotip, etnomadaniy stereotip, adabiy til, xalq dostonlari, paremiologik birliklar.

**Tadqiqotningning predmeti va obyekt.** Tadqiqotning obyekt xalq madaniyatining o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash va tadqiq etishdan iboratdir. Xalq madaniyatining tilda yorqin ifodasini o'zida namoyon etuvchi milliy stereotiplar, o'xshatish va metaforalarning lingvokulturologik xususiyatlari, tilning paremiologik fondi mazkur dissertatsiyaning tadqiqot predmeti sifatida belgilanadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqot ishida lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va ilmiy asoslanishi, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida tildan tashqari (madaniyat)da aks etishi bilan bog'liq hodisalar hamda stereotiplarni belgilash va o'rganish, madaniyat hodisasi sifatida stereotipning turli jihatlarini yaxlit ko'rish va nazariy tahlil qilishni rivojlantirish mazkur ishning maqsadini tashkil qiladi. Tadqiqot muammosi va tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga ko'ra quyidagilar vazifa sifatida belgilandi:

1. Stereotiplarning fanda o'rganilishiga munosabat bildirish;
2. Stereotiplar haqida tushunchaga oydinlik kiritish;
3. O'zbek stereotiplarining antroponimlarda ifodalanishi;
4. Paremiologik birliklardagi milliy stereotiplarni aniqlash.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** Tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida quyidagilarni ko'rsatishimiz mumkin:

tadqiqotda ilk bor lingvomadaniy birliklar – stereotip va realiya, antroponimlarda stereotiplar, o'xshatishlar va metoforalar, paremiologik birliklar va stereotiplar bir-biri bilan o'zaro solishtirildi va o'xshash, farqli tomonlari tahlil qilindi;

milliy stereotipni ifodalovchi birliklar o'rganilib, semantik jihatdan tahlil qilindi; o'zbek xalq maqollarida milliy stereotipni ifodalovchi jihatlar o'rganilib, lingvomadaniy tahlilga tortilgan.

**Qo'llanilish sohasi** – tilshunoslik yo'nalishlari: lingvokulturologiya, lingvoo'lkashunoslik, pragmalingvistika, etnolingvistika, kognitologiya.

**70230101 - Master's student of Linguistics (Uzbek language) Rozimurodova  
Mehinbonu Shadiqul girl "Stereotypes - representative of national culture"  
master's thesis on the subject**

**ANNOTATION**

**Key words:** stereotype, linguoculturology, metaphor, antistereotype, mental stereotype, cultural stereotype, ethnocultural stereotype, literary language, folk epics, paremiological units.

**The subject and object of the research .** The object of the research is to identify and research the unique national language features of the people's culture . Linguistic-cultural characteristics of national stereotypes, similes and metaphors, which show the vivid expression of folk culture in the language , paremiological fund of the language are defined as the research subject of this dissertation.

**The goals and objectives of the research.** In the research work, the formation and scientific foundation of linguo-cultural science, the interaction and connection between language and culture, the formation of this connection and its reflection in non- language (culture) as a whole system, and defining stereotypes and learning, developing a holistic view and theoretical analysis of various aspects of the stereotype as a cultural phenomenon is the purpose of this work. According to the research problem and the goal set for the research, the following tasks were defined:

1. Responding to the study of stereotypes in science;
2. Clarifying the concept of stereotypes ;
3. Expression of Uzbek stereotypes in anthroponyms ;
4. Identification of national stereotypes in paremiological units.

**Scientific innovation of research.** We can point out the following as scientific novelty of the research :

in the research , linguistic and cultural units - stereotype and reality, stereotypes, similes and metaphors in anthroponyms, paremiological units and stereotypes were compared with each other and their similarities and differences were analyzed; the national stereotype were studied and analyzed semantically;

uzbek folk proverbs were studied and analyzed in linguistic and cultural terms.

**Field of application** - areas of linguistics: Lingvoculture, Linguistics  
Pragmalinguistics, Ethnolinguistics, Cognitology.

## MUNDARIJA

<b>Kirish.....</b>	<b>3</b>
<b>I bob. Lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari.....</b>	<b>12</b>
1.1-§. Lingvokulturologiya fanining yuzaga kelishi.....	13
1.2-§. Moskva lingvokulturologik maktablari haqida.....	17
1.3-§. O`zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi va o`rganilishi .....	20
I bob bo`yicha xulosalar.....	24
<b>II bob. Milliy madaniyatning stereotiplari.....</b>	
2.1-§. Stereotip tushunchasi.....	
2.2-§. Stereotip yuzaga kelishishining sabablari.....	
2.3-§. Stereotip turlari.....	
II bob bo`yicha xulosalar.....	
<b>III bob. O`zbek tilida stereotiplar va ularning lingvokulturologik tadqiqi..</b>	
3.1-§. O`zbek stereotipining antroponimlarda ifodalanishi.....	
3.2-§. O`zbek tilida o`xshatish va metaforalarning lingvokulturologik xususiyatlari.....	
3.3-§. Paremiologik birliklarda milliy stereotip ifodasi.....	
III bob bo`yicha xulosalar.....	
<b>XULOSA.....</b>	
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....</b>	

## KIRISH

**Magistrlik dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi:** Bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvoo`lkashunoslik, pragmalingvistika kabi qator yo`nalishlar qo`lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko`rmoqdalar. Bundan maqsad – nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o`rin tutishini aniqlash bo`lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvokulturologik xususiyatlarini yanada chuqurroq o`rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e`tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog`liq bo`lgan lingvokulturologiya masalalari ko`pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo`lsa-da, biroq to`laqonli o`z yechimini topgan emas.

Ayniqsa, lingvokulturologiyaning asosiy o`rganish obyektlaridan biri - stereotipning turli jihatlari va u tegishli masalalar bo`yicha yaratilgan tadqiqotlar ko`p sabablarga ko`ra dolzarbdir. Chunki stereotip shaxsning irodasiga qo`shimcha ravishda, ongning barcha darajalarida namoyon bo`ladigan noyob hodisadir. Stereotiplar ma`lum bir xalq vakilining ruhiyatiga bog`liq bo`lib, turmush sharoiti va yashash tarziga bevosita ta`sir qiladi. Stereotip – bu lingvomadaniy hodisa. Xalq-atvorning stereotipli shakllariga ma`lum harakatlar algoritmiga asoslangan ijtimoiy tajribani uzatish vositasi bo`lib xizmat qiladigan har qanday nisbatan barqaror, takrorlanadigan faoliyat harakatlari kiradi. Masalan, *marosimlar, urf-odatlar, odob-axloq qoidalari, mehnat an`analari, o`yinlar, bayramlar, ta`lim va muayyan tartibga solinadigan* boshqa jarayonlar.

Mazkur tadqiqot ishimiz ayni mana shu masala – tilshunoslikning yangi sohasi lingvokulturologiyaga qaratilganligi bilan e`tiborlidir. Bu esa biz tanlagan mavzuning hozirgi kun tilshunoslik ilmida dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotningning predmeti va obyekt.** Tadqiqotning obyekti xalq madaniyatning tilda namoyon bo`lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog`liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalar hamda millat madaniyatning tilda aks etgan



o'ziga xos milliy til xususiyatlarini aniqlash va tadqiq etishdan iboratdir. Xalq madaniyatning tilda yorqin ifodasini o'zida namoyon etuvchi noekvivlaent leksika va lakunlar, tilning stilistik jamlanmasi, til birliklarning miqlashgan ko'rinishlari: arxip va miqlar (asotir va rivoyatlar), tilda o'z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o'xshatish va metaforalar hamda o'zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari mazkur dissertatsiyaning tadqiqot predmeti sifatida belgilanadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Tadqiqot ishida lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanishi va ilmiy asoslanishi, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqari (madaniyat)da aks etishi bilan bog'liq hodisalar hamda stereotiplarni belgilash va o'rganish, madaniyat hodisasi sifatida stereotipning turli jihatlarini yaxlit ko'rish va nazariy tahlil qilishni rivojlantirish mazkur ishning maqsadini tashkil qiladi. Tadqiqot muammosi va tadqiqot oldiga qo'yilgan maqsadga ko'ra quyidagilar **vazifa sifatida belgilandi:**

1) lingvokulturologiya fanining yuzaga kelish tarixi va ilmiy asoslanishini belgilash;

2) hozirgi kunda lingvokulturologiyada yuzaga kelgan turli yo'nalishlarni ko'rsatish va ularning o'rganish muammolarini belgilash;

3) stereotipning mifologik ildizlarini ko'rib chiqib "stereotip" tushunchasining mazmuniy evolyutsiyasini va uning kognitiv funksiyasini tahlil qilish;

4) etnomadaniy stereotiplarning turlarini ko'rib chiqish;

5) madaniy faoliyat turlari sifatidagi ijodiy va stereotipik faoliyat haqidagi zamonaviy falsafiy g'oyalarni tizimlashtirish va tahlil qilish.

6) tilning paremiologik fondi, til etalonlari, stereotip va ramzlar, tildagi o'xshatish va metaforalar hamda o'zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllarini tahlil qilish va boshqalar.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

- ijtimoiy va individual ongning turli darajalarida faoliyat yurituvchi madaniyat hodisasi sifatida stereotip muammosining falsafiy va uslubiy rivojlanishini tahlil qilish;

- turli ijtimoiy sohalarda tegishli hodisaning namoyon bo'lishini aniqlashga imkon beradigan "stereotip" ni tushuntirish;

- bir qator mahalliy va xorijiy stereotip tushunchalarini qiyosiy tahlil qilish va tasniflash;

- qoliplarning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotida, millatlararo munosabatlardagi roli va ahamiyatini ochib berish;

- madaniyatlararo muloqot muammolari bilan bog'liq holda stereotiplarni ko'rib chiqish;

- ijodiy va stereotipik faoliyatni madaniy faoliyat hodisalari sifatida tahlil qilish;

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:** lingvokulturologiyaning obyektlaridan biri bo'lgan stereotiplarni o'rganilishi va samarali o'zlashtirilishi uchun bu jarayonga har tomonlama yondashuv lozim. Tillararo bo'g'liqlik o'sib kelayotgan yosh avlodni kreativlik ruhida tarbiyalash uchun motivatsiya bo'lib xizmat qilishi, oliy ta'limda lingvokulturologiyaning o'qitilish sifatini ko'tarish uchun tizimining barcha bosqichlarida asosiy rol o'ynashini bilib olish muhim qoidaga aylanadi. Milliy stereotiplarimizni yanada chuqurroq o'rganish, ularni ma'lum guruhlariga bo'lish tadqiqotning asosiy masalalaridan biridir.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi:** Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardagina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlari xizmat qiladi. O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab",

N.Sayidrahimovaning “Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar”, “Lingvokulturologiyaning komponentlari” nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning “Matnning atropotsentrik tadqiqi” mavzusidagi monografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, predmeti va obyekt masalalari o‘rganilgan.

**Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari va tahlil usullari:** Tadqiqotda jahon tilshunosligida keng qo‘llanilgan va qo‘llanilayotgan an’anaviy hamda sistem-struktur metoddan va uning tarkibiy qismi bo‘lgan oppozitsiya, distributsiya, transformatsiya hamda glottoxronologik usullardan foydalanildi. MDning metodologik asosi bo‘lib dialektik falsafa xizmat qiladi.

**Ishning nazariy va amaliy ahamiyati:** ushbu tadqiqotning asosiy xulosalari va qoidalaridan quyidagilarda foydalanish mumkin:

- shaxs va jamoat ongini stereotiplashtirish muammosini keyinchalik nazariy jihatdan ishlab chiqish va stereotip hodisasini amaliy tadqiq qilish uchun;
- etnik, milliy, diniy nizolarni, shuningdek, madaniyatlararo muloqotga oid boshqa muammolarni tahlil qilish va hal etishda;
- moslashuvchan dialektik tafakkurga ega ijodiy shaxsni shakllantirishning bevosita usullarini ishlab chiqishda;
- ijtimoiy subyektlarning fikrlash va xatti-harakatlarining inertsiyasini bartaraf etishga yordam beradigan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqishda;
- ommaviy madaniyatning ayrim muammolarini tahlil qilishda;
- nazariy va amaliy fanlar bo‘yicha kurs ishlarni tayyorlashda, stereotip va stereotiplash muammolarini o‘rganishda qo‘llash mumkin.

**Ishning tuzilishi va hajmi.** Mazkur tadqiqot ishning umumiy tavsifi, kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, lug‘at qismidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 77 sahifadan iborat.

# I BOB. LINGVOKULTUROLOGIYANING TARIXIY VA NAZARIY ASOSLARI

## 1.1 Lingvokulturologiya fanining yuzaga kelishi.

Bugungi kun tilshunoslik ilmida yangi-yangi sohalarining yuzaga kelishi, matn muammosining o'rganilishi bilan bog'liq ishlar jadal rivojlanmoqda. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya kabi qator yo'nalishlar qo'lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko'rmoqdalar. Bundan maqsad – nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o'rin tutishini aniqlash bo'lsa, ikkinchi tomondan, matnning semantik, lingvokulturologik xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganishdir. Shunday masala sifatida hozirgi kunda tilshunoslik ilmida barchaning e'tiborini tortayotgan til va madaniyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan lingvokulturologiya masalalari ko'pchilik tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilayotgan bo'lsa-da, biroq to'laqonli o'z yechimini topgan emas.

Til va madaniyatning bog'liqligi, madaniyatning tilda aks etish muammosi bilan bog'liq masalalarning metodologik asosi yaqin yillardagina boshlandi. Ularning asosi sifatida V.V.Vorobyov, V.M.Shaklein, V.N.Teliya, V.A.Maslovalarning ishlarini qayd etish mumkin.

O'zbek tilshunoslik ilmida ham bu yo'nalishda qator ishlar olib borilmoqda. Xususan, o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi, madaniyatning tilda aks etishi kabi qator masalalarga qaratilgan dastlabki ishlar sifatida A.Nurmonovning "O'zbek tilida lingvokulturologik yo'nalish", N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab", N.Sayidrahimovanning "Lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishiga doir ayrim mulohazalar", "Lingvokulturologiyaning komponentlari" nomli maqolalarini, D.Xudoyberganovanning "Matnning atropotsentrik tadqiqi", Shoxista Maxmaraimovanning Lingvokulturologiya mavzusidagi monografiyasini belgilash mumkin. Mazkur ishlarda lingvokulturologiya fanining mohiyati, predmeti va obykti masalalari o'rganilgan. Mazkur tadqiqot ishida biz yuqorida qayd etilgan

ishlarga tayangan holda o'zbek tilida stereotiplar va ularni lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiq qilishga harakat qildik.

Har bir millat o'zida ma'lum bir milliy an'analarni aks ettiradi. Ya'ni har bir xalqning, millatning o'z milliy an'analari, urf-odatlar mavjud. Bu ma'noda har bir inson ana shu milliylikni o'zida aks ettiruvchi muayyan madaniyat, til, tarix, adabiyotga aloqador bo'ladi. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaromadaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Natijada XX asr oxirlariga kelib, til va madaniyat muammosini o'rganishni maqsad qilgan – tilshunoslikning yangi sohasi **lingvokulturologiya** jadal rivojlandi. Lingvokulturologiya – “til va madaniyat”ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o'zida aks ettirgan hodisalar – til-madaniyatni birgalikda o'rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. U madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlari o'rtasida yuzaga kelgan umumlashma fan bo'lib, til va madaniyatning o'zaro ta'siri va bog'liqligi, bu bog'liqlikning shakllanishi hamda yaxlit bir sistema sifatida til va tildan tashqarida aks etishi kabi hodisalarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Bir tomondan lingvokulturologiya insoniyatning madaniy til faktoridagi o'rni, ikkinchi tomondan esa, til faktoridagi insonning o'rnini o'rganadi.

Lingvokulturologiya o'rganish obyektiga ko'ra madaniyatshunoslik va tilshunoslik fanlariga birmuncha yaqin, biroq mazmun-mohiyati, o'rganish obyektiga bo'lgan yondoshuviga ko'ra farqli deb aytish mumkin. Uning chegaralanuvchi maqomi shundan iboratki, u xalq madaniyatining tilda namoyon bo'lishi hamda ifodalanishi, til mentaliteti, milliyligi, til ruhiyati bilan bog'liq ravishda nutqiy muloqotni tashkil etishdagi milliy-madaniy spetsifik qoidalarni o'rganadi hamda millat madaniyatining tilda aks etgan o'ziga xos milliy til

xususiyatlarini aniqlash, tadqiq etish bilan shug'ullanadi. Ma'lumki, madaniyat tushunchalar sistemasi, muayyan xalqning hayot obrazi, milliy xarakter, milliy mentalitet sifatida keng etnografik mazmun kasb etadi. N.S.Trubetskiyning yozishicha: "Madaniy konnotatsiyalarsiz biror so'z bo'lishi mumkin emas, ya'ni qiyosda, solishtirishda qandaydir umumiy qismlar bo'lishi shart"<sup>1</sup>.

Til va madaniyatning ana shunday o'zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganish imkonini berdi. Ya'ni, til va madaniyat. "Til va madaniyat" muammosining o'rganilishida bir qancha yondoshuvlarni belgilash mumkin: birinchi yondoshuv faylasuf olimlar (S.A.Atanovskiy, G.A.Brutyayn, E.S.Markaryan)lar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda madaniyatning tilga bir tomonlama ta'siridan borliqning o'zgarishi natijasida milliy-madaniy tipiklashtirish va tilda o'zgarish yuz beradi, degan g'oya yotadi<sup>2</sup>.

Ikkinchi yondashuvda esa bu ta'sirning aks tomoni, ya'ni hozirgi kungacha ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala – tilning madaniyatga ta'siri masalasini o'rganish maqsad qilinadi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish bu yondoshuvning asosiy g'oyasi sanaladi. Tilni ruhiy quvvat sifatida tushunish (V.Gumboldt,A.A.Potebnya) asosida Sepir-Uorfning lingvistik aloqadorlik gipotezasi, ya'ni har bir xalq borliqni o'z ona tilisi orqali ko'radi, his etadi, his etganini belgilaydi, degan g'oya yotadi<sup>3</sup>. Bu g'oya keyinchalik, I.L.Vaysgerberning tilni "O'tkinchi hodisa", ya'ni "borliqni anglash", muayyan "mavjudlik va tafakkur" sifatida qaraluvchi g'oyalarida ilgari surilgan. Uning bu gipotezasi ko'pchilik olimlar tomonidan inkor etilgan bo'lsa-da, biroq ular boshqa usullar bilan tushuntirilishi murakkab bo'lgan hodisalarni anglashga yordam berdi. Xususan, N.I.Tolstning etnolingvistik maktabi vakillarining ishlari, E.Barminskiy

---

<sup>1</sup> Трубецкий Н.С. Поведения и мышления к языку. в кн.:НЛ.в.1.М.,1960. Стр 75

<sup>2</sup> Bu haqda qarang: Сепир Э. Отношение норм. Поведения и мышления к языку в кн.: НЛ.в.1.М.,1960.Стр 98

<sup>3</sup> Nurmonov A.Sepir-Uorfning lingvistik nisbiylik nazariyasi haqida mulohazalar / O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. – Toshkent, 2011.-№5.

va izdoshlarining lingvoantropologik yoʻnalishdagi ishlari buning isbotidir<sup>4</sup>. Uchinchi yondashuv toʻgʻridan-toʻgʻri til va madaniyatning oʻzaro taʼsiri va aloqadorligi gʻoyalariga asoslanadi. Til milliy mentalitetning spetsifik qirralarini oʻzida namoyon etadi. Boshqa tomondan “madaniyat tilda“ joylashgan, yaʼni u matnda toʻlaligicha oʻz ifodasini topadi.

**“Lingvokulturologiya”** atamasi dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N.Teliya va V.V.Vorobyov, V.A.Maslova va boshqalarning ishlarida koʻrindi. Lingvokulturologiyaning shakllanishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.F.Gumboldtga borib taqalishini taʼkidlaydilar<sup>5</sup>. Ushbu adabiyotlarda bu sohaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyayn, A.Vejbiskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning fikrlari muhim rol oʻynaganligi taʼkidlanadi<sup>6</sup>.

Bu kabi qarashlar lingvistika sohasida XX asr oxirlarida atoqli rus olimlari qatorida chet el olimlari tomonidan ham tan olindi. Bunday qarshlarga koʻra, til nafaqat madaniyat bilan bogʻliq, balki u oʻzida madaniyatning oʻsishini ham ifodalaydi. Til bir vaqtning oʻzida yaratish quroli, madaniyatning rivojlanishi va saqlanishini taʼminlovchi uning bir qismidir, shuning uchun til yordamida maʼnaviy madaniyat hamda borliqdagi ishlab chiqarish , materiallari real yaratiladi. Ana shu gʻoyalar asosida ming yillarda chet elda yangi fan – lingvokulturologiya vujudga keldi va XX asrning 90-yillarida maxsus soha sifatida shakllandi. Lingvokulturologiya bugungi kunda bir necha yoʻnalishlarda namoyon boʻladi:

1. **Lingvokulturologiya** yorqin madaniy aloqalarni, lingvomadaniy holatlarni, aniq ilmiy izlanishlarni oʻz ichiga oladigan alohida sotsial guruh.

---

<sup>4</sup> Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика.- М.,1987.Стр.15

<sup>5</sup> Qarang: Nurmonov A. Ovrupoda umumiy va qiyosiy tilshunoslikning maydonga kelishi. Nurmonov A.Tanlangan asarlar.2- jildlik.-Toshkent: Akademya nashr, 2012. - B.23-40.

<sup>6</sup> Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика.- М.,1987.Стр 69-70

2. **Diaxronik lingvokulturologiya.** Lingvomadaniyatning etnos holatidagi aniq o‘tish vaqtining o‘zgarishlarini o‘rganadi.

3. **Qiyosiy lingvokulturologiya.** Lingvomadaniyatda paydo bo‘ladigan turli xil etnoslarning ikki tomonlama qiyoslash bilan shug‘ullandi.

4. **Tavsifiy lingvokulturologiya.** Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar barmoq bilan sanarli. Ular orasida M.K.Golovanivskaning “Rus tilida so‘zlashuvchilar nuqtai nazarida fransuz mentaliteti” nomli ishi katta ahamiyatga ega. Ishning obykti sifatida rus va fransuz tillaridagi abstrakt tushunchalar: taqdir, xavf, omad, qalb, ong, tafakkur, g‘oya va boshqalar olingan.

5. **Lingvokulturologik leksikografiya.** Lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini tuzish bilan shug‘ullanadi<sup>7</sup>. Llingvokulturologiyaning bu yo‘nalishi hozirgi kunda boshqa yo‘nalishlarga qaraganda jadal rivojlanib bormoqda. Fikrimizning dalili sifatida D.G.Maltsevaning lingvoo‘lkashunoslik lug‘atini keltirishimiz mumkin. Bu lug‘at 25 bobdan iborat. Unda Germaniya realiyalarida ifodalanuvchi til birliklari, iqlim xususiyatlari, hayvonot va o‘simlik dunyosi, mamlakatlar tarixi, qadimiy urf-odatlar, an’analar; qadimiy afsonalar, son va rangni ifodalovchi simvollar; to‘y, marosimlar, bayramlar; diniy marosimlar; valyuta tizimining rivojlanishi; uzunlik, og‘irlik, hajm, yuza; savdo-sotiq ishlari, fan, texnika, tibbiyot; pochta xizmati, shaharlar qurilishi va arxitektura tarixi kabilar obyekt sifatida olingan. Shuningdek, lug‘atda berilgan ma’lumotlar ichidan til, kitobatchilik, hattotlik san’ati, talaba va talabalar hayoti, maktab, milliy kiyim-kechak spetsifik elementlari, milliy taomlar, milliy o‘yinlar, milliy raqslar, an’anaviy ko‘rishish usullari va tilaklar, etiketga xos jumlalar, shaxsiy ism va familiyalar, milliy imo-ishoralar, badiiy ijod namunalari, aforizm, milliy xarakter kasb etuvchi olmon qo‘shiqlari joy olgan.

---

<sup>7</sup> см.: Америка. Англо-русский лингвострановедческий словарь / Под ред. Н.В.Чернова. -- Смоленск, 1996; Рума.Р.У. Великобритания: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1999; Мальцева Д. Г. Германия: страна и язык: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1998; Муравлева Н.В. Австрия: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1997; Николау Н.Г. Греция: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1995; Страны Соединенного Королевства: Лингвострановедческий справочник / Сост. Г.Д.Томахин. -- М., 1999; Томахин Г.Д. США: Лингвострановедческий словарь. -- М., 1999; Франция: Лингвострановедческий словарь / Под ред. Л. Г. Ведениной. -- М., 1997.



Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bunday lingvoo‘lkashunoslik lug‘atlarini yaratishda til va madaniyat munosabati xarakterini to‘g‘ri belgilash o‘ta muhim sanaladi.

## **1.2. Moskva lingvokulturologik maktablari xususida**

Hozirgi kunda lingvokulturologiya tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biri ekan, u o‘zining muayyan rivojlanish bosqichlariga ega. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.V.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga sabab bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, A.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi<sup>8</sup>.

Lingvokulturologiyaning rivojida Moskva lingvokulturologik maktablari alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Ma’lumki, Moskva lingvokulturologik maktablari XX asr oxirlarida paydo bo‘ldi. Bu borada rus tilshunoslaridan Yu.S.Stepanov, N.D.Arutyunov, V.N.Teliya, V.A.Vorobyovlar asos solgan bir qancha maktablar yuzaga keldi:

**Yu.S.Stepanov lingvokulturologik maktabi.** Bu maktab metodologiya bo‘yicha E.Benvenist konsepsiyasiga yaqin bo‘lib, o‘zida madaniyatni aks ettiruvchi til birliklarining diaxronik aspektini tekshirish bilan shug‘ullangan. Ular o‘z maqsadlarini turli davrlarga oid matnlarini solishtirish orqali amalga oshirishgan.

**N.D.Arutyunov maktabi** turli davr va xalqlarga oid matnlardan olingan universal madaniy terminlarni o‘rganish bilan shug‘ullangan.

**V.N.Teliya maktabi** esa, frazeologizmlarni lingvokulturologik analiz qiluvchi Moskva maktabi sifatida Rossiya va chet davlatlarda taniqlidir. Teliya va uning shogirdlari til va uning haqiqiy mohiyatini semantik madaniyat nigohida, uni

---

<sup>8</sup> Маслова В.А. Лингвoкультурология. -М.:Академия,2001. Стр 53

ham tilshunoslik ham madaniyat subyektini sifatida o'rgandi. Uning konsepsiyasi A.Vejbitskoy pozitsiyasiga yaqin (lingua – mentalis – mental lingvistika). **V.V.Vorobyov va V.M.Shaklein va boshqalar** Rossiya xalqlar do'stligi universitetida tashkil etgan lingvokulturologik maktabida V.M.Bereshagin, V.G.Kostomarov konsepsiyasi rivojlandi. Shunday qilib, **lingvokulturologiya** – o'z ichiga olgan jonli milliy tilni va tilda paydo bo'ladigan o'zgarishlarni ijtimoiy-madaniy protsessda o'rganuvchi gumanitar soha sanaladi. U tilning fundamental funksiyalaridan biri bo'lib, tilning rivojlanishi, saqlanishi madaniy translyatsiyasini o'z ichiga oladi.

Til va madaniyatning o'zaro yaqinligi, ya'ni aloqadorligi ularni yagona metodologik asosda o'rganishga imkon beradi. Qiyoslaymiz:

1. Til va madaniyat inson va xalqning dunyoqarashini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

2. Til va madaniyat o'zaro diologda mavjud: nutq subyektini va uning adresatini hamma vaqt madaniyat subyektini sanaladi (etiket shakllari: salomlashish, urf-odat bilan bog'liq rasm-rusum va hokazolar).

3. Har ikkala shakl individual yoki umumiy mavjudlik shakliga ega, ya'ni til va madaniyat subyektini – hamma vaqt individual yoki ijtimoiy, shaxs yoki jamiyat sanaladi.

4. Til va madaniyat uchun umumiy belgi bu umumiylikdir.

5. Tarixiylik – “til va madaniyat” uchun (“dinamika” (o'zgaruvchanlik) yoki “statika” (turg'unlik)) eng asosiy xususiyat sanaladi.

6. Madaniyat xalqning o'ziga xos tarixiy xotirasidir. Til esa o'zining kumulyativ (to'ldiruvchi) xususiyatiga ko'ra o'zida o'tmish xotirasini saqlaydi va to'ldirib boradi, shu kabi qator xususiyatlari ularni yagona metodologik asosda o'rganish imkonini berdi.

Ayni damda inson va jamiyat o'rtasida quyidagi farqlar ko'zga tashlanadi:

1. Kommunikatsiya vositasi sifatida til xalq madaniyatida va taraqqiyotda yuz bergan o'zgarishlarni ozmi-ko'pmi aks ettiradi.

2. Madaniyatning belgi sistemasiga o'tishi tildan farqli ravishda mustaqil shakllanish xususiyatiga ega emas.

3. Til va madaniyat boshqa-boshqa (semiotik) belgi tizimidir. Bunday qiyoslash tadqiqotchilarni tilga ozomorf emas, balki "gamomorf", ya'ni aloqador ekanligini isbotlaydi.

Lingvokulturologiyaning vazifasi til birliklarining madaniy ahamiyatini nutqiy vaziyat birliklari – frazeologizmlar yoki boshqa ekstrolingvistik til birliklari, madaniyatning ma'lum "kodlarini" ifoda etuvchi simvolik belgilarni solishtirish asosida ish yuritishdan iboratdir. Lingvokulturologiya uchun taraqqiyotga nisbatan madaniyatni o'rganish muhimroq sanaladi, chunki taraqqiyot moddiy, madaniyat esa ramziydir. Mif, urf-odatlar, marosimlar madaniyatga xos, ular xalqning turmushi va marosimlari shaklida til birliklari va ifodalarida jo bo'ladi. Shu sababli, ulardagi til birliklari lingvokulturologiyaning obyektidir.

XX asr boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylanib ulgurdi. Ko'plab tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o'rganuvchi fan bo'lib, o'zaro aloqadorlikda bo'lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil etadi. Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, shaxs va madaniy omillarni uzviylikda tadqiq etuvchi fandır"<sup>9</sup>. G.G.Slishkinning fikriga ko'ra, "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi"<sup>10</sup>.

Professor A.Nurmonovning "Sepir-Uorfning nisbiylik nazriyasi haqida mulohazalar" nomli maqolasida keltirishicha, B.Uorf til bilan madaniyat o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri muvofiqlik mavjudligini ta'kidlash bilan birga, madaniyat

---

<sup>9</sup> Телия В.Н. Русская фразеология. – М.:1982. – С. 20-25.

<sup>10</sup> Bu haqda qarang: Маслова В.А. Лингвoкультурология. -М.:Академия,2001. Стр 46

hodisalari til shakllarining to'g'ridan-to'g'ri ta'sirida maydonga kelishini bayon qiladi. Lekin bunga B.Uorf hech qanday dalil keltirmaydi.

Darhaqiqat, til bilan madaniyat o'rtasida ma'lum bog'liqlik mavjud. Aslida madaniy til xalq madaniyatining bir qismi. Lekin til bilan madaniyat o'rtasida determinizm, sabab-natija munosabati yo'q. Buning dalili sifatida shuni ko'rsatish mumkinki, ba'zi hollarda ma'lum xalq o'z madaniyatini saqlagan holda, tilini o'zgartirishi mumkin. Til shakli bilan madaniyat shakli bir-biriga muvofiq kelmagan holatlar ham uchraydi. Xususan, bir-biriga yaqqol qarindosh bo'lgan *xuta* va *navaxo* tillarida gaplashuvchi qabilalar butunlay boshqa-boshqa madaniyatga ega. Aksincha, *pueblo* va *pleyi* hindu qabilalari juda yaqin madaniyatga ega bo'lib, tamomila boshqa-boshqa tillardan foydalanishadi. Yoki Markaziy Osiyoda o'zbek va tojik xalqlari tamomila boshqa-boshqa sistemadagi tillarga mansub bo'lsalar-da, bir-biriga juda yaqin madaniyatga ega. Bu esa shuni ko'rsatadiki, madaniyat hodisalari bilan til strukturasi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri sababiy tobelilik va to'g'ridan-to'g'ri muvofiqlik yo'q. Shunday bo'lsa ham, ular o'rtasida umumiy bog'liqlik mavjud. Chunki, madaniyatdagi o'zgarish tilda aks etadi. Shu ma'noda madaniyatning tilga ta'siri haqida gapirish mumkin, lekin shunda ham tilning madaniyatga ta'siri haqida emas. Ammo bu har ikki tushuncha, ta'kidlab o'tganimizdek, bir-biriga uzviy bog'liq va bir-birini taqazo etadi.

### **1.3. O'zbek tilshunosligida lingvokulturologiyaning ilmiy asoslanishi va o'rganilishi**

Yuqorida tilga olganimizdek, hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida ham eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi<sup>11</sup>. Shuningdek, lingvokulturologik yondoshuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida ham oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Masalan, Z.I.Saliyevaning nomzodlik ishi o'zbek va fransuz tillaridagi sentensiya,

---

<sup>11</sup> Гумбольдт В.фон. Язык и философия культуры. – М., 1985. – С. 33.

ya'ni axloqiy-ta'limiy harakterdagi matnlarning milliy- madaniy xususiyatlariga bag'ishlangan<sup>12</sup> R.S.Ibragimovning nomzodlik dissertatsiyasida esa *ayol* konseptining o'zbek va fransuz tillarida ifodalanish yo'llari tadqiq etilgan<sup>13</sup>.

Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab" nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antroposentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin<sup>14</sup>. Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)" demakdir. Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti tamoman boshqadir".

Shuningdek, tilshunos olim D.Xudoyberganova bu borada o'zining "Matnning antroposentrik tadqiqi" monografiyasini yaratdi<sup>15</sup>. U o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganish ochib berdi. Unda

---

<sup>12</sup> Салиева З.И. Концептуальная значимость и национально – культурная специфика сентенции в английском и узбекском языках: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Ташкент, 2010. – С. 25.

<sup>13</sup> Bu haqida qarang: Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent,2012. - № 5. – B. 10.

<sup>14</sup> Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab...// O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent,2012. - № 5. – B. 3 - 16

<sup>15</sup> Xudayberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan.. 2013.

prezident birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rne, o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o'rne, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e'tibor berildi. Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma'naviy qiyofamiz, muqaddas qadriyatlarimizni anglash, davlatchilik an'analarimizni tiklashga, xalqimizning istiqbol to'g'risidagi asriy orzularini ro'yobga chiqarishga yordam beradi va bu borada xalqni xalq, millatni millat sifatida birlashtiradi. O'z qadriyatlarini bilgan va o'z milliyligiga hurmati bo'lgan xalq buyuk ishlarga qodir ekanini xis qiladi, istiqbolining qadriga yetadi, farzandlarining kamoloti uchun qayg'uradi. Aynan shuning uchun ham milliy qadriyatlar jamiyatning yangilanishiga xizmat qiluvchi ma'naviy omil hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan, xalqimizni ma'naviy poklanishga yetaklaydigan asoslardan biridir. Xalqimizning avlodlardan-avlodlarga meros qilib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ularning o'tmishi uch ming yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtiradi. Xalqimiz Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi. Bizning milliy qadriyatlarimiz ana shu sivilizatsiyaga xos jihatlari: tug'ilgan makon va ona yurtga mehr, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi. Mustaqillik davrida milliy ma'naviyatni tiklash va yuksaltirishga qaratilgan olamshumul ishlar amalga oshirildi. Ijtimoiy gumanitar fanlarda qadriyatlarning uchta asosiy belgisiga e'tibor qatiladi:

1) Ular ijtimoiy ong tomonidan yaratilgan ijtimoiy ideal sifatida namoyon bo'ladi, ularda ijtimoiy hayotning turli jabhalaridagi narsa-hodisalarning komillik atributlari ifodalanadi. Bu qadriyatlar umuminsoniy, shaxsiy, tarixiy, adabiy, milliy va h.k. bo'lishi mumkin;

2) Milliy qadriyatlar ma'naviy va moddiy madaniyat asarlari shaklida yoki insoniy xulq-atvor ko'rinishida obyektivlashadi va muayyan ijtimoiy ideallar (axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy va h.k.) da namoyon bo'lishi mumkin.

3) Ijtimoiy qadriyatlar individ dunyoqarashi va psixikasi prizmasi orqali shaxsning psixologik tuzilmasiga kirib boradi va unda shaxsiy qadriyatlar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Bu qadriyatlar uning xulq-atvorini belgilaydigan motivatsiyaga aylanadi<sup>16</sup>.

Mana shunday jarayonlarda yuzaga kelgan milliy til hodisalari – *stereotiplar* esa o‘z navbatida hozirgi kun tilshunosligida yechimini kutayotgan dolzarb masalalardan biri sanaladi.

### **I bob bo‘yicha xulosa**

1. Ma’lumki, til ijtimoiy hodisa bo‘lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog‘liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaromadaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o‘zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o‘ziga xos ko‘rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o‘rtasidagi alohida spetsifik yo‘nalishi va predmetiga ega bo‘lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda;

2. Hozirgi kunda lingvokulturologiya tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biri ekan, u o‘zining muayyan rivojlanish bosqichlariga ega. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.V.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga sabab bo‘lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, A.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi ;

3. Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma’naviy qiyofamiz, muqaddas qadriyatlarimizni anglash, davlatchilik an’analarimizni tiklashga, xalqimizning istiqbol to‘g‘risidagi asriy orzularini ro‘yobga chiqarishga yordam beradi va bu borada xalqni xalq, millatni millat sifatida birlashtiradi. O‘z qadriyatlarini bilgan

---

<sup>16</sup> Блохин И. Н. Журналистика в этнокультурном взаимодействии. СПб., 2013.

va o'z milliyligiga hurmati bo'lgan xalq buyuk ishlarga qodir ekanini xis qiladi, istiqlolining qadriga yetadi, farzandlarining kamoloti uchun qayg'uradi;

4. Milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan, xalqimizni ma'naviy poklanishga yetaklaydigan asoslardan biridir. Xalqimizning avlodlardan-avlodlarga meros qilib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ularning o'tmishi uch ming yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtiradi. Xalqimiz Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi. Bizning milliy qadriyatlarimiz ana shu sivilizatsiyaga xos jihatlar: tug'ilgan makon va ona yurtga mehr, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi.



## II BOB. MILLIY MADANIYATNING STEREOTIPLARI

### 2.1 Stereotip tushunchasi

Har qanday madaniyat o'zining dunyoni idrok qilishiga asoslangan, o'z tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi. Stereotip muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir. Stereotip u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi.

Stereotiplar xalqning borliqni idrok etishi, undan xulosa chiqarishi va amalda foydalanishi asosida vujudga keluvchi his-tuyg'ular majmuidir. Stereotiplar shaxslar, narsalar, urf-odatlar asosida ham shakllanadi.

Dunyo lingvomadaniyatida olamning lisoniy manzarasini paydo qiluvchi va ayni zamonda turli xalqlar madaniyatini bir-biridan farqlashga xizmat qiladigan shunday tushunchalar ham borki, ular konsept sifatida har bir shaxsning o'z dunyoqarashida shakllanadi. Bunda shaxsning qanday muhitda tug'ilgani va yashayotganligi asos bo'ladi. Tilimizda, turmush-tarzimizda, muomalamizda, kiyinishimizda va yana ko'plab holatlarda ko'zga tashlanadigan va biz madaniyat deb tushunadigan qadriyatlar borki, u har bir xalqda o'ziga xos bo'ladi. Chunki tarixiy bo'linish va shakllanishdan boshlab, bugungi kunimiz, zamonaviy hayotimizgacha bo'lgan davr turli xalqlarda turlicha kechgan. Xalq og'zaki ijodida, tarixiy asarlarda, yozma yodgorliklarda ifodalangan, turli an'analar xalqlarning qanday o'ylashi, nimani to'g'ri deb bilishi, kimni ideal deb hisoblashi kabi tasavvurlar shu xalqning tarixi va ajdodlarining qarashlari bilan bog'liq. Shunga ko'ra lingvomadaniy tushunchalar ham xilma-xildir. Bu tushunchalar orasida stereotip milliy madaniyatni tasavvur etishda o'ziga xos hisoblanadi. Stereotip – muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir <sup>17</sup>. Stereotip – u yoki bu xalqning milliy xarakteri

---

<sup>17</sup> Қапанг: Usmanova Sh. Lingvokulturologiya, darslik. T.: 2019. – Б.151.

haqida obektiv ma'lumot beradi. V.A. Maslovaning ta'biricha, "stereotip dunyoda mavjud tip bo'lib, u faoliyat, hatti-harakat va hokazolarni belgilaydi. Stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo bo'lmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi"<sup>18</sup>. Bundan tashqari, lingvokulturologiyada: olam konseptual manzarasining bir qismi, kichik mental manzara; predmet va vaziyatlar haqidagi turg'unlashgan milliy-madaniy tasavvurlar va ularning tilda aks etuvchi shakllari, ijtimoiy guruhlar yoki alohida shaxslar haqidagi qoliplashgan tushuncha, qarashlar ham stereotipdir<sup>19</sup>. Umumiy qilib aytganda, har bir xalqning lingvomadaniyati va unga aloqador tushunchalarni tahlil qilish, o'rganish va bilish harakati stereotipdir. Stereotip xalqlar madaniyatida milliylikni aks ettirgan biror bir shaxs (tarixiy qahramon), an'ana yoki urf-odatga, marosimlar va ularga xos so'zlarda (misol uchun etnografizmlar) oydinlashadigan milliy xarakter-xususiyatni ifodalovchi tushuncha. Stereotipik xarakter – xalqning tasavvurida milliy madaniyatning targ'ibotchisi bo'lgan shaxs, uning vatanparvarlik, to'g'riso'zlik, halollik, kuchlilik (turli xalqlarda turlicha) kabi jihatlariga taqlid, o'zlashtirish yoki hurmat bilan munosabatda bo'lish, uni ibrat namunasi sifatida ko'rsatish. Har qanday vaziyatda ham milliy madaniyatni ifodalovchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Har bir xalqning milliy madaniyatiga e'tibor berar ekanmiz, unda qadimiy urf-odatlarga, tarixiy qadriyat va an'analarga sodiqlik, ularni avloddan-avlodga yetkazish madaniyatni asosini tashkil qilganini ko'ramiz<sup>20</sup>.

Stereotip termini (*yunon. stereos qattiq, typos iz, tamg'a*) amerikalik sotsiolog U.Lippman tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U 1922-yilda nashr etilgan "Jamoat fikri" nomli kitobida stereotiplarning jamoat fikri tizimidagi o'rni va rolini aniqlashga harakat qilgan. U.Lippman stereotipni bizning ongimizga yetib bormasidan oldin his-tuyg'ularimizdagi ma'lumotlarga muayyan ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhitni alohida idrok qilish shakli sifatida tushuntirgan. Olimning fikriga ko'ra, inson uni o'rab olgan atrof-muhitni butun qarama-

---

<sup>18</sup> Usmonova Sh. Ko'rsatilgan asar. – B.167.

<sup>19</sup> Худойберганава Д. Лингвокультуроология терминларининг кискача изохла лугати., Т.: Туронзамин зиё, 2015. – Б. 36.

<sup>20</sup> Bu haqida to'liqroq qarang: Курбаназарова Н. Сурхондарё тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Филол.фан.бўйича фалс.док.дисс. :- Термиз 2021. – Б:98-99.

qarshiliklari bilan anglashga harakat qilib, o'zi bevosita kuzatmagan hodisalar haqida o'zining miyasida manzara hosil qiladi<sup>21</sup>.

Tarixiy bo'linish va shakllanishdan boshlab, bugungi kunimiz, zamonaviy hayotimizgacha bo'lgan davr turli xalqlarda turlicha kechgan. Xalq og'zaki ijodida, tarixiy asarlarda, yozma yodgorliklarda ifodalangan, turli an'analar xalqlarning qanday o'ylashi, nimani to'g'ri deb bilishi, kimni ideal deb hisoblashi kabi tasavvurlar shu xalqning tarixi va ajdodlarining qarashlari bilan bog'liq. Shunga ko'ra lingvomadaniy tushunchalar ham xilma-xildir. Bu tushunchalar orasida *stereotip* milliy madaniyatni tasavvur etishda o'ziga xos hisoblanadi. Stereotip – u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi. Inson o'z hayotida bevosita qarshilashmagan juda ko'p narsalar haqida oldindan aniq tasavvurga ega bo'ladi. Shunga o'xshash stereotiplar tasavvuri mazkur individumning madaniy muhiti tasirida shakllanadi: Aksariyat hollarda biz u yoki bu hodisani oldin ko'rib, keyin unga aniqlik kiritmaymiz, aksincha, oldin u yoki bu hodisani o'zimiz uchun aniqlab, so'ngra uni kuzatamiz. Tashqi dunyoning butun chalkashliklaridan bizning madaniyatimizga aloqadorinagina yulib olamiz va biz mazkur ma'lumotni stereotip shaklida qabul qilishga moyil bo'lamiz. Stereotiplar insonga olam haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish, o'zining tor ijtimoiy, geografik va siyosiy muhitidan chiqishga imkon beradi.

U.Lippman stereotiplar tadqiqi nazariyasiga asos solgan bo'lsa, 1933-yilda amerikalik olimlar D.Kas va K.Breylilar milliy stereotiplarni o'rganish metodikasini ishlab chiqishdi. D.Kas va K.Breylilarning tadqiqotida bir qancha etnik guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi.

Keyingi yillarda etnik stereotiplarni o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlarni tahlil qilgan psixolog O.Klenberg etnik stereotip tushunchasini tahlil qilgan.

Aksariyat tadqiqotchilar etnik stereotiplarni muqarrar, lekin xavfli hodisa hisoblashadi. Ko'pchilik lug'atlarda stereotip so'zi salbiy ma'noda qayd qilingan.

---

<sup>21</sup> Lippmann W. Public Opinion. BN Publishing. USA, 2007. P. 89.

Jumladan, M.Korduellning psixologiyadan tuzgan lugʻatida stereotipga shunday taʼrif berilgan: Stereotip maʼlum guruh yoki kategoriyadagi kishilar haqidagi keskin, koʻpincha yuzaki tasavvur. Biz umumiyatda yuzakilikka moyil boʻlganimiz uchun ham boshqa insonlarning xulq-atvorini oldindan koʻrish uchun stereotiplarni shakllantiramiz. Mazkur stereotiplar koʻpincha salbiy mohiyat, soxta tasavvur va tahqirlash asosiga ega boʻladi.

Stereotiplar har doim ham yolgʻon boʻlmaydi; odatda, ularda maʼlum maʼnoda haqiqat boʻladi. Stereotiplarni koʻpchilik tomonidan boʻlishilishi ularning singib ketishiga yordam beradi. Stereotiplar vaqt oʻtishi bilan oʻzgarishi mumkin, lekin stereotip sohiblarining oʻzlashtirilgan tasavvurlardan qutulishi qiyin boʻladi.

## **2.2. Stereotip yuzaga kelishining sabablari**

Har bir inson oʻzining shaxsiy qadriyatlar ierarxiyasiga ega. Bu qadriyatlar jamiyatning maʼnaviy madaniyati va shaxsning maʼnaviy olami oʻrtasida bogʻlovchi vazifasini bajaradi. Shaxsning qadriyatlar tizimi uning faoliyati jarayonida jamiyatning moddiy va maʼnaviy madaniyat asarlarida obyektivlashgan qadriyatlarini oʻzlashtirish jarayonida shakllanib boradi. Shaxsning qadriyatlari koʻpincha yuqori darajada anglangan boʻladi, ular shaxs ongida qadriyatlarga yoʻnalganlik tarzida namoyon boʻladi, hamda shaxs xulq-atvorining ijtimoiy munosabatlar bilan uygʻunlashishi, tartibga solinishini taʼminlaydi.

Shaxs qadriyatlari ham, jamiyat qadriyatlari ham ijtimoiy taraqqiyot ehtiyojlari taʼsirida oʻzgarib boradi, ularga hukmron mavqega ega boʻlgan axloqiy konsepsiyalar ham kuchli taʼsir oʻtkazadi. Shuning uchun ham, universal xususiyatga ega boʻlgan, davrlar oʻtsa ham oʻzgarmaydigan qadriyatlarni topish juda qiyin. Hayotiy qadriyatlar toʻgʻrisidagi tasavvurlar antik jamiyatda jiddiy oʻzgarishlarga duch keldi. Bu jamiyatda jamoadan ajralib chiqqan shaxs oʻzini toʻla anglay boshladi va ijtimoiy axloqning timsoliga aylandi. Bu jarayonlar Gomerning “Iliada” va “Odissey” dostonlarida oʻz ifodasini topgan.

Dostonlarda ibtidoiy jamoa tuzumining zavoli va antik moʻtadillik, his tuygʻularni jilovlay olish madh etiladi. Ibtidoiy jamoada moʻtadillik boʻlmagan va his-tuygʻularga erk berish oddiy holat edi. Qadimgi Sharq mamlakatlaridagi

qadriyatlar va ideallar G'arbdagidan ancha farqlangan. Masalan, eng qadimgi olamshumul dinlardan hisoblangan buddizmda insonning komillikka intilishiga, atrofdagilarga yaxshilik qilishiga alohida o'rin ajratiladi. Buddizmdagi oliy qadriyatlar insonlarga muhabbat, ularning komillikka intilishlarida yordam berish, shu bilan birga, ehtiroslarga berilmaslik va zohidlik hisoblanadi. Ularning aksi bo'lgan lazatlarga berilish, yalqovlik, baxillik tuban xususiyatlar hisoblanadi. Buddizmning tibet-mo'g'ul shakli bo'lgan lamaizmda hasad, badjahllik, g'iybat qattiq qoralanadi. Lamaizmda o'zgalarning hayotini himoya qilish, sahiylik, haqiqatgo'ylik, itoatkorlik, rahm-shafqatlilik, boshqalarning qiyinchilik va azoblariga sherik bo'lish yuqori qadriyat sifatida talqin etiladi.

Konfutsiylikda oliyjanoblik, mardlik, sadoqat, samimiyluk, adolat singari sifatlar axloqiylik namunasi sifatida ko'rsatiladi. Yaponiyadagi sintoizm va buddizm o'zining xo'jayiniga vafodor bo'lish, o'zini fido qilishni madh etadi. Bunday axloqiy sifatning ko'rinishlari hozirgi kunda ham Yaponiyada imperatorlarga, firma yoki kompaniya xo'jayiniga sodiqlik shaklida saqlanib qolgan. Sintoizm xushmuomalalik va bosiqlik ham yuqori baholangan. Boshqa dinlardan keyinroq vujudga kelgan islom dini odamlarni itoatgo'ylikka va kattalarni hurmat qilishga chaqiradi. Bu dinning turli mazhablarida mehnat qilish, kamtarlik, sabr-qanoatli bo'lish, qiyinchiliklarni sabr bilan yengish madh etiladi. Masalan, tasavvufdagi naqshbandiya sulukining asosiy shiori-Oллоh dilingda, qo'ling mehnatda bo'lsin "*Dil ba yoru, dast ba kor*" iborasi musulmonlarni muntazam mehnat qilishga chaqiradi. Milliy psixologiya har bir millat vakilining milliy his-tuyg'ular, xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari, psixik temperamentlari va fe'l-atvorlarini namoyon etadi. Psixologik nuqtai-nazardan stereotiplashish qandaydir ijtimoiy guruh yoki etnik birlikning barcha a'zolariga moslashuvi jarayonidir. Demak, etnik stereotiplari yuksak hissiyoti va barqarorligi bilan farqlanadigan turli etnik guruhlarining vakillari to'g'risidagi umumiy xulosalardir. Stereotiplar tarkib topishining sababi, guruhning qadriyatlarini himoya qilishga

intilish bilan birga juda ko‘p axborotlarni “o‘zlashtirish” uchun kundalik fikrlashda “kuchlarini tejash” prinsipidan foydalanish zarurligidir<sup>22</sup>. Milliy psixologiya elementi bo‘lmish, etnik stereotiplar kundalik hamda nazariy ong darajasida shakllanadi va emotsional, ratsional, irodaviy elementlar majmuidan iborat bo‘ladi. Etnik stereotiplarni psixologik tahlil qilish uchun ularning ichki tuzilmalarini bilish muhim ahamiyatga molikdir<sup>23</sup>.

Psixologik nuqtayi nazardan stereotiplashish qandaydir ijtimoiy guruh yoki etnik birlikning barcha a‘zolariga moslashuv jarayonidir. Demak, etnik stereotiplari yuksak hissiyoti va barqarorligi bilan farqlanadigan turli etnik guruhlarining vakillari to‘g‘risidagi umumiy xulosalardir. Stereotiplar tarkib topishining sababi, guruhning qadriyatlarini himoya qilishga intilish bilan birga juda ko‘p axborotlarni “o‘zlashtirish” uchun kundalik fikrlashda “kuchlarini tejash” prinsipidan foydalanish zarurligidir.

Milliy psixologiya elementi bo‘lmish, etnik stereotiplar kundalik hamda nazariy ong darajasida shakllanadi va emotsional, rasional, irodaviy elementlar majmuyidan iborat bo‘ladi. Etnik stereotiplarni psixologik tahlil qilish uchun ularning ichki tuzilmalarini bilish muhim ahamiyatga molikdir.

Stereotipni 4 ta xususiyati (L.Edvars) bo‘yicha “o‘lchash” mumkin.

1. Stereotipning mazmuni, ya’ni qandaydir etnik guruhga mansub xususiyatlar to‘plami;

2. Bir xillik u yoki bu xususiyatlarni etnik guruhga mansublashtirishdagi tekshiruvchilarning moslik darajasi;

3. Yo‘nalish stereotiplashish obyektni umumiy, ijobiy yoki salbiy idrok etish;

4. Intensivlik – stereotiplashadigan guruhga nisbatan xato tushunchaning stereotipida ko‘ringan darajasi.

Xulqning stereotiplashgan shakllari anchadan beri turli xil fan namoyondalarining diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb etib keladi.

Chet el psixologi E.M.Fromm, jamiyat ichidagi birliklar va sinflar o‘zining

---

<sup>22</sup> Гасанов И. Б. Национальные стереотипы и «образ врага» // Психология национальной нетерпимости. Минск, 1998. Стр 56

<sup>23</sup> Карасик В. И. Языковые ключи. Волгоград, 2007. Стр 84

alohida ijtimoiy xarakterga ega ekanligini va shu asosda rivojlanishini hamda muayyan g'oyaviy kuchga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Agar ijtimoiy xarakterga uning ijtimoiy jarayondagi vazifalari nuqtayi-nazaridan qaralsa, biz avvalo inson ijtimoiy sharoitlarga moslashib, o'zida lozim bo'lgan yo'sinda harakat qilishga majbur etadigan hislatlarni rivojlantirishini tasdiqlashimiz lozim.

A.K.Bayburin – ijtimoiy va etnik stereotiplarni ikki qiyofali odamga taqqoslab, shunday deb yozadi:

a) ular mazkur ijtimoiy birlikning individualligini boshqa ijtimoiy makondan, boshqa madaniyatdan izlashsa, uning aks ettiradigani mazkur sotsium, (birlik) mazkur ijtimoiy guruh muammosini hal qilishning individual reflekslanmaydigan (ikki ijtimoiy guruh uchun boshqa-boshqa) usullari bo'lishi mumkin;

b) ana shu stereotiplar mazkur guruhdagi shaxs, uning etnik o'ziga xos xislatlari sifatida boshqa madaniyatiga duch kelganda uni biladigan shaxsning ijtimoiy, tipik xarakteristikasi sifatida ham namoyon bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

A.G.Asmolov o'z ta'rifida U.Lipmanning fikriga qo'shilib, A.P.Trusov va

A.S.Filippov etnik stereotiplarni ikki jihatdan, ya'ni gnoseologik (ularning bilish jarayonidagi roli) va sotsiologik (ularning ijtimoiy vazifalari) jihatlardan turib tadqiq qilishni tavsiya etadi. Ana shu fikr bizni bundan keyin ushbu bo'lim materiallarini bayon qilishda ham to'la qanoatlantiradi va biz ham ana shu yo'ldan boramiz", – deb ta'kidlaydi.

U.Lipman o'z tadqiqotlaridan birida stereotiplashish zarurligining ikkita eng muhim sababini ko'rsatadi.

Birinchi – stereotiplashish tufayli kishilarning kuch sarflashi tejaladi, ular yangi faktlar va hodisalar to'g'risida qaytadan o'ylab, fikrlab o'tirmaydilar; Shunday faktlar va hodisalarni to'g'ridan to'g'ri mavjud kategoriyalarga kiritadilar. "Agar atrofdagi olamda bir xillik bo'lmasa, yoki kuchlarni tejashning hech qanday yo'li bo'lmasa, faqat xatolar mavjud bo'lar edi, lekin ana shunday bir xillik mavjud bo'lgani uchun diqqat e'tiborni tejash shunchalar zarurki, agar sof

tajriba asosida fikr yuritish uchun barcha stereotiplardan voz kechilsa, insoniyatning tirikchiligiga muqarrar ravishda zarar yetar edi”.

Ikkinchi – sabab guruhiy boyliklarni (milliy madaniy boyliklar va shaxsning ma’naviy boyligi) muhofaza qilish, ya’ni sof ijtimoiy vazifadir. “Stereotiplar” an’analarimizni qo’riqlaydi, ular qancha ko’p bo’lsa, biz unda o’zimiz egallagan mavqening xavfsizligini shunchalik ko’pligini his etishimiz mumkin, deb ta’riflaydi.

Ma’lumki, “stereotip” iborasining ilmiy muomalaga 1922-yilda U.Lipman kiritgan. Ammo stereotiplar tadqiqot obyekti bo’lgunicha oradan ma’lum vaqtlar o’tgan. Dastlabki, “antistereotip” (inson qiyofasi) muammosini empirik tadqiq qilishga ko’p e’tibor berildi. Shundan keyingina etnik stereotiplarni keng miqyosda tadqiq etish bosqichi boshlandi. Hamma kishilar u yoki bu darajada ijtimoiy va etnik stereotiplarning ifodalovchisidir. Bizning boshqa xalqlar to’g’risidagi bilim va tasavvurlarimizning bir qismi ana shu stereotiplar yordamida shakllangan.

M.Mukanovning yozishicha, etnosning o’ziga xosligi shundan iboratki, uning vakillari mazkur etnosiga xos assotsiativ aloqada bo’ladilar. Etnos tomonidan qabul qilingan me’yorlar konvensionlardir (to’la tan olingandir).

Etnosdagi me’yoriy jarayonlar konvensiyalar (kelishuviga rioya qilish) va uning mavjudligi sababli barqaror tus olgan (stereotiplashgan) jarayonlardir. Mazkur fikrlar ko’plab ilmiy ishlarda isbotlangan.

A.M.Jabborov quyidagilarni ta’kidlaydi:

1) ijtimoiy-madaniy muhit vujudga kelishining manbalari etnosning birligi, tili, zamon va makonda tashkil topishi, xalqning turmush tarzi, boyliklari, qadriyatlarini, ijtimoiy hamda madaniy mavjudligi va hokazolardan iboratdir;

2) xalqning o’ziga xos fe’l-atvori va psixologiyasining etnik stereotiplarini tadqiq qilish, ularni vujudga keltirgan ijtimoiy-madaniy tizimni o’rganish asnosida amalga oshirilishi kerak. Bunda xalqning o’ziga xosligini tiklash avloddan avlodga o’tib kelayotgan stereotiplarning noaniq nusxasi ekanini hisobga olish kerak.

Stereotip yuzaga kelishining sabablari turlichadir. Ulardan asosiylari quyidagicha:



**1. Ongning himoyali reaksiyasi.** Informatsiyalar hajminig doimiy ravishda o'sib borishidan miyani haddan ziyod zo'riqishdan himoyalash. Axborotlarni stereotiplashtirish miya zo'riqishini tabiiy shaklda himoyalashni yuzaga chiqaradi. Mazkur himoyasiz inson ongi doimiy mulohazalardan boshi berk ko'chaga kirib qolishi mumkin. Stereotiplarning mavjudligi bu jarayonni yengillashtiradi. Kishilar sodir bo'layotgan hodisalarga har doim ham e'tibor bermasdan, ya'ni har safar hissiyot, iztiroblarga berilmasdan ularni o'zlarining tajribasidan ma'lum bo'lgan mavzuviy guruhlariga kiritishadi. Doimo o'zgarishda bo'lgan dunyo insonni kelib tushayotgan axborotlarni qulayroq va ixchamroq modellarga tasniflashga majbur qiladi. Bunday modellar stereotiplar, deb nomlanadi. Stereotiplarni rad etish insondan butun diqqat-e'tiborini jalb etishni talab qilib, uning hayotini bitmas-tuganmas sinovlar va xatolarga to'ldirgan bo'lardi. Stereotiplar insonga o'rab olgan dunyoni farqlay olishi, uni soddalashtirishi, tartibga solishida yordam beradi. Insonni har safar "Amerika ochish" yoki "radio ixtiro qilish"dan xalos qiladi. Demak, insonning o'z hayotida stereotiplardan foydalanishi tabiiy hol sanaladi.

**2. O'z guruhining qadriyatlarini, qiziqishlarini, o'bro'yi va h.k.ni himoyalash.** O'zini muayyan madaniyatga aloqador qilish va boshqa xalqlar bilan qiyoslash har bir insonga uning o'ziga xosligini, individualligini his qilishiga yordam beradi. Masalan, fransuzlar nazdida belgiyaliklar – hazil-mutoyibadan yiroq, kaltafahm; shvetsariyaliklar – xasis, ziqna, maydakash; italyanlar – yolog'on-yashiqlarni qo'shib gapiradigan; turklar – jismonan baquvvat; inglizlar – xudbin xalqdir.

Inson stereotiplarni turli yo'llar vositasida o'zlashtiradi. Birinchidan, boshqa guruhlar haqida o'ylash "odati" ma'lum ma'noda "ona suti orqali" o'zlashtiriladi. Stereotiplarning aksariyati ota-onalar tomonidan farzandlarning ongiga singdirilgan obrazlar orqali o'tadi va rivojlanadi. Stereotiplar 12 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan davrda batamom shakllanib mustahkamlanadi va ularni bu yoshdan keyin o'zgartirish juda qiyin kechadi. Binobarin, bu nafaqat begona guruhlariga aloqador, balki boshqa guruhlar nazdidagi o'z millatiga ham tegishli bo'ladi. Masalan, o'zbek xonadonida bolaga "o'zbeklar mehmodo'st, bag'rikeng"

yoki “lo‘lilar firibgar, tovlamachi” deyilsa, bola so‘zsiz mazkur stereotiplarni qabul qiladi.

Ikkinchidan, stereotiplar cheklangan shaxsiy aloqalar vositasida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, sizni bozorda Tojikistondan kelgan savdogar aldasa, siz butun tojik xalqi haqida tovlamachi degan noto‘g‘ri xulosaga kelishingiz mumkin. Bunday holatda stereotip insonning cheklangan informatsiyasi natijasida paydo bo‘ladi.

Uchinchidan, stereotiplarning vujudga kelishida ommaviy-axborot vositalarining alohida o‘rni bo‘ladi. Ommaviy axborot vositalarining stereotiplarni shakllantirish imkoniyati cheklanmagan. Ko‘pchilik uchun matbuot, radio va televideniye ishonchli manba sanaladi. Ommaviy axborot vositalarining fikri ommaning fikriga aylanadi.

Umuman, har qanday shaxs muayyan madaniyatlar bilan bog‘langan stereotiplar olamida yashaydi. Stereotip turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o‘ziga xosligidir.

### **2.3 Stereotip turlari**

Stereotip hodisasi nafaqat tilshunoslarning ishlarida, balki sotsiologlar, etnograflar, kognitologlar, psixologlar va etnopsixolingvistlarning ham tadqiqotlarida o‘rganiladi. Ushbu fanlarning har qaysi vakili stereotiplarning xususiyatini o‘z sohasining tadqiqoti nuqtayi nazaridan belgilaydi. Shunga ko‘ra, ijtimoiy stereotiplar (kasbiga, yoshiga ko‘ra), *muloqot stereotiplari*, *mental stereotiplar*, *madaniy stereotiplar*, *etnomadaniy stereotiplar* kabilarni tashkil etadi. Masalan, ijtimoiy stereotiplar shaxsning tafakkuri va muomalasini ko‘rsatadi. *Etnomadaniy yoki milliy stereotiplar* eng ko‘p o‘rganilgan bo‘lib, ular biror bir xalqqa xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. Etnomadaniy stereotiplar milliy guruhlar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatadi, muayyan millatning o‘zini o‘zi anglashi va mentalitetining tarkibiy qismi hisoblanadi, shuningdek, milliy xarakter bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Lingvokulturologiyani ko‘proq etnomadaniy, yani milliy stereotiplar qiziqtiradi. Masalan, yaponlar bilan dastlab muloqotga kirishgan yevropaliklar yaponlarning qayg‘uli hodisalar, jumladan, yaqin qarindoshlarining kasalligi yoki o‘limi haqida yuzlarida tabassum bilan gapirishlaridan hayratga tushishgan va hozirgacha hayratlanishadi. Bu kabi hodisalar berahm, shavqatsiz yapon stereotipining shakllanishiga asos bo‘lgan. Biroq mazkur holatda tabassumni Yevropa madaniyatining o‘ziga xosligidan emas, balki yapon madaniyatining qonuniyatlaridan kelib chiqqan holda tushunish maqsadga muvofiqdir. Chunki qayd qilingan holat yaponlarning berahmlikidan emas, atrofdagilarni o‘zining qayg‘usi bilan bezovta qilmasligini namoyon qiladi.

Madaniyatlararo muloqotda *o‘zbeklar mehmondo‘stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotlilik, xitoyliklar sertakallufligi, yaponlar xushmuomalaligi, estonlar sustkashligi, italyanlar qiziqqonligi, inglizlar sovuqqonligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi* bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga chiqargan.

Qayd qilingan etnomadaniy stereotiplar orasida, ayniqsa, nemis stereotipi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Nemis madaniyatida tartib, aniqlik, puxtalik, o‘z vaqtida bo‘lishlik, buyruqqa, qonunlarga hurmat, pog‘onalilik, maqsadga intilish, ratsionalizm sifatida tushuniladi. Nemis mentalitetining stereotiplari asosida protestantlik etikasining xususiyatlari yotadi. Unda har bir kishi o‘zining xatti-harakatlari uchun Xudo oldida javob beradi. Shuning ko‘ra ham nemislar uchun qonun muqaddas, barcha narsadan ustun hisoblanadi.

Xalqaro *latifalar, turli korinishdagi hazillar, milliy badiiy adabiyot, folklor, xalq ogzaki ijodi va milliy til stereotip tasavvurlarning* keng tarqalgan manbalari hisoblanadi. Stereotip tasavvurlar asosida milliy xarakterlarni ochib berishga qaratilgan quyidagi latifani ko‘rib chiqamiz:

Bir kuni turli millat vakillarini kino ko‘rishga yuborishibdi. Filmning mazmuni quyidagicha ekan: cho‘g‘dek yonayotgan cho‘l va qizdirayotgan quyosh. Erkak va ayol zo‘rg‘a sudralib ketishmoqda. Birdan erkak qayerdandir sersuv apelsin topadi va uni ayolga beradi. Tomoshabinlarga shunday savol berilibdi: U

qaysi millat vakili?. Fransuz-tomoshabin shunday javob beribdi: Faqat fransuzgina ayolga shunday sermulozamat bo'lishi mumkin! Rus: Yo'q. Bu rus! Buni qarang, ahmoq. O'zi yeyishi mumkin edi. Yahudiy: Yo'q, bu yahudiy. Kim ham cho'ldan apelsin topa olardi? Mazkur stereotiplar vositasida *fransuzlarning sermulozamatligi, ruslarning beparvoligi va yahudiylarning uddaburonligi* ko'rsatilgan.

Stereotiplarning *avtostereotip* va *geterostereotip* turlari ham mavjud. Avtostereotiplar kishilarning o'zlari haqida nima o'ylashlarini, geterostereotiplar boshqa xalqlar haqidagi o'y-fikrlar, munosabatlarni (ko'proq tanqidiy munosabatlarni) aks ettiradi. Masalan, o'z xalqida tejamkorlik hisoblangan odat, boshqa xalqda kuzatilganda xasislik sifatida baholanadi.

Kishilar etnomadaniy stereotiplarni namuna sifatida qabul qilishadi va boshqalarga kulgi bo'lmaslik uchun ularga moslashishga harakat qilishadi. Shuning uchun ham stereotiplar kishilarga katta ta'sir ko'rsatadi. Stereotiplarda aks etgan xususiyatlar kishilarda ham shakllana boshlaydi. Etnomadaniy stereotiplarni o'rgangan etnopsixologiya mutaxassislarining qayd qilishlaricha, iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan millatlarda aqllilik, ishbilarmonlik, uddaburonlik, iqtisodiy jihatdan qoloq bo'lgan millatlarda esa mehr-muruvvat, samimiylik, mehmondostlik kabi fazilatlar mujassamlashgan bo'ladi.

S.G.Ter-Minasovaga ko'ra, ingliz jamiyatida kasbiy mahorat, mehnatsevarlik, mas'uliyat, rus jamiyatida esa mehmondostlik, kirishimlilik, haqqoniylik singari hislatlar qadrlanadi.

V.A.Maslovaning fikricha, stereotiplar har doim milliy bo'ladi, agar boshqa madaniyatlarda ayni stereotiplar uchrab qolsa, unda ular haqiqiy emas yoki bir-biriga to'la mos kelsa ham baribir qaysidir jihatlari bilan farq qiladi.

Stereotip yuzaga kelishining sabablari turlichadir. Ulardan asosiylari quyidagicha:

1. *Ongning himoyali reaksiyasi.*
2. *O'z guruhining qadriyatlarini, qiziqishlarini, obro'yi va boshqalarni himoyalash.*

O'zini muayyan madaniyatga aloqador qilish va boshqa xalqlar bilan qiyoslash har bir insonga uning o'ziga xosligini, individualligini his qilishiga yordam beradi. Masalan, fransuzlar nazdida belgiyaliklar hazil-mutoyibadan yiroq, kaltafahm, shvetsariyaliklar xasis, ziqna, maydakash, italyanlar yolg'on-yashiqlarni qo'shib gapiradigan, turklar jismonan baquvvat, inglizlar xudbin xalqdir.

Inson stereotiplarni turli yo'llar vositasida o'zlashtiradi.

Birinchidan, boshqa guruhlar haqida o'ylash odati ma'lum ma'noda ona suti orqali o'zlashtiriladi. Stereotiplarning aksariyati ota-onalar tomonidan farzandlarning ongiga singdirilgan obrazlar orqali o'tadi va rivojlanadi. Stereotiplar 12 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan davrda batamom shakllanib mustahkamlanadi va ularni bu yoshdan keyin o'zgartish juda qiyin kechadi. Binobarin, bu nafaqat begona guruhlariga aloqador, balki boshqa guruhlar nazdidagi o'z millatiga ham tegishli bo'ladi. Masalan, o'zbek xonadonida bolaga o'zbeklar mehmodo'st, bag'rikeng yoki lo'lilar firibgar, tovlamachi deyilsa, bola so'zsiz mazkur stereotiplarni qabul qiladi.

Ikkinchidan, stereotiplar cheklangan shaxsiy aloqalar vositasida ham yuzaga kelishi mumkin. Masalan, sizni bozorda Tojikistondan kelgan savdogar aldasa, siz butun tojik xalqi haqida tovlamachi degan noto'g'ri xulosaga kelishingiz mumkin. Bunday holatda stereotip insonning cheklangan informatsiyasi natijasida paydo bo'ladi.

Uchinchidan, stereotiplarning vujudga kelishida ommaviy-axborot vositalarining alohida o'rni bo'ladi. Ommaviy-axborot vositalarining stereotiplarni shakllantirish imkoniyati cheklanmagan. Ko'pchilik uchun matbuot, radio va televideniya ishonchli manba sanaladi. Ommaviy-axborot vositalarining fikri ommaning fikriga aylanadi.

Umuman, har qanday shaxs muayyan madaniyatlar bilan bog'langan stereotiplar olamida yashaydi. Stereotip turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir. Stereotiplarni o'rganish, madaniyatlararo

muloqotlarda yuzaga chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarni, to'qnashuvlarni oldini oladi.

U.Lipman o'z tadqiqotlaridan birida stereotiplashish zarurligining ikkita eng muhim sababini ko'rsatadi:

Birinchi - stereotiplashish tufayli kishilarning kuch sarflashi tejaladi, ular yangi faktlar va hodisalar to'g'risida qaytadan o'ylab, fikrlab o'tirmaydilar; shunday faktlar va hodisalarni to'g'ridan-to'g'ri guruh kategoriyalarga kiritadilar. "Agar atrofdagi olamda bir xillik bo'lmasa, yoki kuchlarni tejashning hech qanday yo'li bo'lmasa, faqat xatolar mavjud bo'lar edi, lekin ana shunday birxillik mavjud bo'lgani uchun diqqat-e'tiborni tejash shunchalar zarurki, agar sof tajriba asosida fikr yuritish uchun barcha stereotiplardan voz kechilsa, insoniyatning tirikchiligiga muqarrar ravishda zarar yetar edi".

Ikkinchi sabab – guruhliy boyliklarni (milliy madaniy boyliklar va shaxsning ma'naviy boyligi) muhofaza qilish, ya'ni sof ijtimoiy vazifadir. Stereotiplar an'analarimizni qo'riqlaydi, ular qancha ko'p bo'lsa, biz unda o'zimiz egallagan mavqening xavfsizligini shunchalik ko'pligini xis etishimiz mumkin, deb ta'riflaydi<sup>24</sup>.

Ma'lumki, stereotip iborasining ilmiy muomalaga 1922-yilda U.Lipman kiritgan. Ammo stereotiplar tadqiqot obyekti bo'lgunicha oradan ma'lum vaqtlar o'tgan. Dastlabki, antistereotip (inson qiyofasi) muammosini empirik tadqiq qilishga ko'p e'tibor berildi. Shundan keyingina etnik stereotiplarni keng miqyosda tadqiq etish bosqichi boshlandi.

Hozirgi kunda, buyuk qadriyatlarimizning mazmunini o'zida ifodalovchi milliy tilimizning boy imkoniyatlaridan samarali foydalanilmoqda. Bu borada mamlakatimizda e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Istiqloq yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi

---

<sup>24</sup> Гасанов И. Б. Национальные стереотипы и «образ врага» // Психология национальной нетерпимости. Минск, 1998. С. 9.

lugʻatlar koʻplab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga oʻz hissasini qoʻshmoqda. Ayniqsa, davlat tilining xalqaro miqyosda ham faol muloqot vositasiga aylanib borayotgani eʼtiborlidir. Xususan, xorijiy mamlakatlar rahbarlari bilan boʻladigan uchrashuv va suhbatlar, muzokaralar, tegishli hujjatlarni imzolash marosimlarida, nufuzli sammitlarda, rasmiy matbuot anjumanlarida oʻzbek tilining oʻrni va ahamiyati ortib borayotgani hammamizga gʻurur-iftixor bagʻishlaydi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda mamlakatimiz ravnaqi tilimiz rivoji va hayotga joriy etilishi bilan chambarchas bogʻliqdir. Til – siyosiy hayotning asosi. Chunki, milliy til rivojlanmasa siyosiy ong ham oʻsmaydi. Shu nuqtai nazardan, tilning siyosiy jihatlarini, ayniqsa, siyosiy lingvistikadagi muammoli masalalarning mazmunini, ular orasidagi oʻzaro bogʻliqlikni va siyosiy diskursning maʼnosini belgilaydigan asosiy gʻoyalarni siyosiy-falsafiy jihatdan tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy-madaniy stereotiplar oʻrganilayotgan tilning mamlakat va xalqining milliy-madaniy qadriyatlarining oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisidagi barqaror gʻoyalar sifatida talabalarni boshqa jamiyatning konseptual tizimi bilan tanishtirishga taʼsir qiladi, tashuvchilarning motivlari va qiymat yoʻnalishlarini tan olish qobiliyatini shakllantiradi, dunyoning boshqa manzarasi va nihoyat, madaniyatlararo muloqot doirasini aniqlaydi. Biroq, ongning psixologik va milliy-madaniy xususiyatlari bilan belgilanadigan stereotiplarning subyektiv, hissiy va baholovchi xususiyati ularning madaniyatlararo muloqot jarayonida alohida koʻrinishlarini belgilaydi. Bunda salbiy stereotiplarning ham, ijobiy (yaʼni haqiqatga zid boʻlmagan) ham mavjudligi omilini hisobga olgan holda, stereotiplarning maʼnosini anglashda istisnolarga yoʻl qoʻymaslik, ijtimoiy-madaniy xususiyatini aniqlashga tizimli yoʻnaltirilishiga eʼtibor qaratish lozim.

E.Utaske stereotipning muhim xususiyati sifatida uning asosiy etnomadaniy jihatini koʻrsatadi.

Bu borada V.Shmidtning ham oʻz qarashlari mavjud boʻlib, u siyosiy stereotip va siyosiy tilining oʻziga xosligi borasida quyidagi fikrlarni aytib oʻtadi:

Siyosiy leksikaning umumiy alomati uning mafkuraviyligidadir.

Til doimiy o‘zgarib turuvchi, jamiyat va madaniyatda ifodalash, anglatish, o‘rganish, axborot yetkazish, kommunikativ kabi vazifalarni bajaruvchi tizimdir. U axborotni saqlash, jamlash va yetkazib berish, insoniy faoliyat, fe‘l-atvorni boshqarishning o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy vositasi hamdir.

Slavyan xalqlarining tillari va folklor an‘analarida taqdim etilgan etnik (etnik-madaniy) stereotiplarni tahliliy o‘rganish boshqa millat yoki boshqa din vakilining keng qamrovli etnik-lingvistik portretini tuzish, asosiylarini ajratib ko‘rsatish imkonini beradi. Etnik stereotiplar xalq madaniyatidagi “o‘zga” stereotipining xususiyatlari va xalq e‘tiqodlarida “begona” bo‘lgan g‘oyalarning shakllanishi mexanizmini tavsiflaydi. Bu borada milliy til birliklari: xalqning e‘tiqodiy tushunchalari, marosim va folklor tiliga tayanib, tahlillar amalga oshiriladi<sup>25</sup>. Shunga tayangan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Etnomadaniy stereotip tashqi voqelik haqidagi bilimning muhim tarkibiy qismi, universal kognitiv tasniflagich sifatida ishlaydi. Dunyo folklorining eng muhim tarkibiy qismi tilda ifodalanadi.

2. Ushbu turdagi stereotiplarni o‘rganishda etnolingvistik yondashuvdan foydalanish juda samaralidir. Shuning uchun lingvistik va ekstralingvistik stereotiplarni ajralmas birlikda ko‘rib chiqish, lingvistik ma‘lumotlarni etnografiya va folklor faktlari bilan mustahkamlash, shuningdek tahlil qilish imkonini beradi.

Har bir inson u yoki bu darajada ijtimoiy va etnik stereotiplarning ifodalovchisidir. Bizning boshqa xalqlar to‘g‘risidagi bilim va tasavvurlarimizning bir qismi ana shu stereotiplar yordamida shakllangan. M.Mukanovning yozishicha, etnosning o‘ziga xosligi shundan iboratki, uning vakillari mazkur etnosiga xos assotsiativ aloqada bo‘ladilar. Etnos tomonidan qabul qilingan me‘yorlar konvensionlardir (to‘la tan olingandir). Etnosdagi me‘yoriy jarayonlar konvensiyalar (kelishuviga rioya qilish) va uning mavjudligi sababli barqaror tus olgan (stereotiplashgan) jarayonlardir. Mazkur fikrlar ko‘plab ilmiy ishlarda isbotlangan.

---

<sup>25</sup>Шалак В. Стереотипы национальных характеров. [Электронный ресурс] URL: <http://www.vaal.ru/show.php?id=126>.



Keyingi yillarda etnik stereotiplarni o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlarni tahlil qilgan psixolog O.Klenberg "etnik stereotip" tushunchasini quyidagicha belgilagan: "Etnik stereotip – insonlar ongidagi o'zlari yoki boshqa milliy guruhlar haqidagi manzara. Bunday obrazlar yoki tasavvurlar jamiyatda keng tarqalgan bo'ladi; odatda, ular obyektiv borliqqa nisbatan o'ta jo'n va qabul qilinmaydigandir"<sup>26</sup>.

Aksariyat tadqiqotchilar etnik stereotiplarni muqarrar, lekin xavfli hodisa hisoblashadi. Ko'pchilik lug'atlarda "stereotip" so'zi salbiy ma'noda qayd qilingan. Jumladan, M.Korduellning psixologiyadan tuzgan lug'atida stereotipga shunday ta'rif berilgan: "Stereotip – ma'lum guruh yoki kategoriyadagi kishilar haqidagi keskin, ko'pincha yuzaki tasavvur. Biz umumiyatda yuzakilikka moyil bo'lganimiz uchun ham boshqa insonlarning xulq-atvorini oldindan ko'rish uchun stereotiplarni shakllantiramiz. Mazkur stereotiplar ko'pincha salbiy mohiyat, soxta tasavvur va tahqirlash asosiga ega bo'ladi. Stereotiplar har doim ham yolg'on bo'lmaydi; odatda, ularda ma'lum ma'noda haqiqat bo'ladi. Stereotiplarning ko'pchilik tomonidan shakllantirilishi ularning singib ketishiga yordam beradi. Stereotiplar vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin, lekin stereotip sohiblarining o'zlashtirilgan tasavvurlardan qutulishi qiyin bo'ladi"<sup>27</sup>.

Har bir xalq, har bir mamlakatda atrof-muhit haqida o'z g'oyalari bor. Ba'zi shunday stereotiplar ham mavjudki, buni ma'lum madaniyat vakillari o'zlariga nisbatan xulq-atvor va urf-odatlar majmuyi sifatida qabul qilgan.

Madaniy stereotiplar madaniyat egalarining ehtiyoji, tili, dini, madaniyati, tabiati, flora va faunasi, o'zgalardan ajralib turishga intilishlari, tanlovi o'laroq paydo bo'ladi va qat'iydashadi, o'zgarmas o'rin egallaydi; boshqa madaniy stereotiplardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy tilshunoslikda madaniy stereotiplarni o'rganishga ehtiyojning kelib chiqishi nima bilan bog'liq? Bu ehtiyoj yuqorida aytganimizdek stereotiplar muayyan millatning tili nuqtayi nazaridan ham paydo bo'lishi mumkin, yoki bo'lmasa madaniyatning tilga, tilning

---

<sup>26</sup> Klenberg O. Tensions Affecting International Understanding. 1950. –P. 93.

<sup>27</sup> Кордуэлл М. Психология А-Я. Словарь-справочник. –М., 2000.

nadaniyatga munosabatini o'rganish mobaynida o'sha xalqqa xos, boshqa xalqlardan ajralib turuvchi stereotiplarni kuzatamiz. Stereotiplar ma'lum xalq tomonidan ma'lum davrda yaratilar ekan ularni avlodlarga tashish uchun til muhim vosita vazifasini o'taydi. Madaniy stereotiplar keyingi avlodlarning mentalitetini shakllantirishda faol rol o'ynaydi. Dunyo xalqlari o'z milliy madaniyatida hukmronlik qiladigan g'oyalar, munosabatlar va qadriyatlarnigina tan olishadi. Dunyoni mana shu ko'z bilan ko'radi. Shu sababli, dunyo haqida odamlarning taqdimotlari har doim nisbiy va xilma-xil bo'lib, u qaysi madaniyat bag'rida tug'ilganligi va voyaga yetganligiga bog'liq. Nima uchun boshqa madaniyat vakili dunyoni o'ziga notanish jamiyat vakilining qandaydir sotsial-madaniy kontekstida o'zini tutishiga qarab yoki uning bu dunyoni qanday qabul qilishiga qarab, uning his-tuyg'ularini qanday ishlashini tasavvur qilib tushunishi kerak. Boshqa xalqlar va madaniyatlar vakillari bilan uchrashuv, odatda, o'z harakatlarini madaniyat nuqtayi nazaridan suhbatdoshining boshqa ijtimoiy va madaniy muhitni tan olishini haqqoniy va to'g'ri baholay olmaydi. Ko'pincha bironing tilini, imo-ishoralar va xatti-harakatlarning boshqa elementlarini tushunmaslik holati ularning bunday xatti-harakatlari va his-tuyg'ularning ma'nosini bilmaslikka yoki noto'g'ri tushunishga olib keladi. Natijada boshqa madaniyat vakiliga nisbatan hushyorlik, nafrat va dushmanlik kabi salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradi. Stereotiplar – bu madaniyat vakillarining kollektiv ongining shakli – bu odamlarning jamoat tajribasini aks ettiradi, ularning kundalik amaliyotida keng takrorlanadi. Ularning faoliyati natijasida hosil bo'ladigan qo'shma faoliyat. Odamlar ma'lum bir madaniy stereotiplarning paydo bo'lishi xususiy xususiyat kasb etishini ta'kidlab, atrofdagi ijtimoiy hayotning paydo bo'lishi, ular juda yaxshi ko'rinadigan yoki tushunadigan harakatlarning paydo bo'lishini stereotip shaklida qabul qiladi. Madaniyat tarkibidagi stereotiplar xalq xususiyatlari va fazilatlarining konsentratlaridir, ularning mohiyatini aniq yetkazish xalq madaniyatini tog'ri yetkazishning yagona usulidir.

Ba'zi madaniyatlarda shunday xususiyatlar borki, bu xususiyatlar boshqa bir madaniyat vakillari tomonidan haqorat sifatida tushuniladi va salbiy munosabatga

sabab bo‘ladi. Xususan, yaponlarga yaqin qarindoshlarning kasalligi yoki o‘limi kabi qayg‘uli narsalar haqida gapirsangiz ular jilmaygan holda qabul qiladi. Bu yaponiyaliklarning shafqatsizligi haqidagi stereotipni shakllantirish uchun asos bo‘ldi. Biroq, bunday hollarda tabassum qilinishi [Yevropa madaniyati](#), xulq-atvori va yapon madaniyatida o‘zgacha xarakter kasb etadi. Bu o‘rindagi jilmayish holati aslida yaponiyaliklarning shaxsiy qayg‘ularini bezovta qilmaslik istagini anglatadi. Demak mavjud stereotiplar turli madaniyat vakillariga turli xil ta’sir etadi. Kelib chiqish yoki o‘rganilish jihatidan stereotiplar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Irqiy va etnik stereotiplar: qo‘shimcha ravishda mahalliy amerikaliklar, qora stereotiplar, Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo stereotiplari, sharqiy va janubiy Osiyo stereotiplari va ispan stereotiplari;
2. Gender stereotiplari: ularga erkak, ayol kognitiviga oid stereotiplar;
3. Bekal yo‘naltirilgan stereotiplar;
4. Ijtimoiy-iqtisodiy stereotiplar.

Stereotiplar odamga dunyo g‘oyasini tuzishga imkon beradi, uning tor ijtimoiy, geografik va siyosiy dunyosidan tashqariga chiqadi. Stereotiplarning o‘rganilish sababi, qoida tariqasida, bir yoki boshqa umumiylik, cheklangan xatti-harakatlar va boshqa madaniyat vakillarining xulq-atvorini aniqlashdir. Stereotiplar boshqa madaniyat vakillarining xatti-harakatlarining modellari haqida ba’zi taxminlarga olib keladi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, qisman stereotiplarning shakllanishi haqiqiy faktlar bilan mustahkamlangan. Shunga qaramay, stereotiplar odatda milliy tabiat bilan bir xil emas, shuningdek, odamlarning o‘zlari haqida gapirmaydi.

Stereotiplar tilda aks ettirilganligi aniq. Vaqt o‘tishi bilan doimiy ravishda takrorlanadigan iboralar ma’lum til barqarorligini oladi.

E.N.Belaya stereotiplarning funksiyalarini quyidagicha belgiga ega bo‘lishi mumkin deya tavsiflaydi:

- 1) nisbatan ishonchli ma’lumotlarning uzatilishi. Agar siz begona madaniyatga kirsangiz, odamlar o‘zlari ko‘rganlarini soddalashtirish va umumlashtirish, birlamchi madaniy modelni yaratishga moyil;

2) yo'naltirish stereotip funksiyasi to'g'ridan to'g'ri oldingi funksiyadan kelib chiqadi. Uning o'rni, atrofdagi dunyodagi soddalashtirilgan matritsani, ma'lum bir "qo'llanma" ni yaratishdir;

3) haqiqatni yaratishga ta'sir qilish funksiyasi – stereotiplar yordamida, uning aniq farqlanishi va kimningdir madaniy modellari paydo bo'ladi. Stereotip birlamchi madaniy xulosani saqlashga yordam beradi.

Stereotip hodisasi nafaqat tilshunoslarning ishlarida, balki sotsiologlar, etnograflar, kognitologlar, psixologlar va etnopsixolingvistlarning ham tadqiqotlarida o'rganiladi. Ushbu fanlarning har qaysi vakili stereotiplarning xususiyatini o'z sohasining tadqiqoti nuqtayi nazaridan belgilaydi. Shunga ko'ra, ijtimoiy stereotiplar (kasbiga, yoshiga ko'ra), muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereotiplar va h.k. farqlanadi. Masalan, ijtimoiy stereotiplar shaxsning tafakkuri va muomalasini ko'rsatadi. Etnomadaniy yoki milliy stereotiplar eng ko'p o'rganilgan bo'lib, ular biron bir xalqqa xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi. Etnomadaniy stereotiplar milliy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatadi, muayyan millatning o'zini o'zi anglashi va mentalitetining tarkibiy qismi hisoblanadi, shuningdek, milliy xarakter bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Lingvokulturologiyani ko'proq etnomadaniy, ya'ni milliy stereotiplar qiziqtiradi. Masalan, yaponlar bilan dastlab muloqotga kirishgan yevropaliklar yaponlarning qayg'uli hodisalar, jumladan, yaqin qarindoshlarining kasalligi yoki o'limi haqida yuzlarida tabassum bilan gapirishlaridan hayratga tushishgan va hozirgacha hayratlanishadi. Biroq mazkur holatda tabassumni yevropa madaniyatining o'lchovlaridan emas, balki yapon madaniyatining o'lchovlaridan kelib chiqqan holda tushunish maqsadga muvofiqdir. Chunki qayd qilingan holat yaponlarning atrofdagilarni o'zining qayg'usi bilan bezovta qilmasligini ifodalovchi stereotipik holatdir.

Madaniyatlararo muloqotda o'zbeklar mehmondo'stligi, ruslar tavakkalchiligi, qozoqlar qaysarligi, turklar hissiyotlilik, xitoyliklar sertakallufli, yaponlar xushmuomalaligi, italyanlar qiziqqonligi, estonlar sustkashligi, nemislar tartibga aniq rioya qilishi bilan butun xalq haqidagi stereotip tasavvurlarni yuzaga

chiqargan<sup>28</sup>.

Qayd qilingan etnomadaniy stereotiplar orasida, ayniqsa, nemis stereotipi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Nemis madaniyatida tartib aniqlik, puxtalik, o‘z vaqtida bo‘lishlik, buyruqqa, qonunlarga hurmat, pog‘onalilik, maqsadga intilish, ratsionalizm sifatida tushuniladi. Nemis mentalitetining stereotiplari asosida protestantlik etikasining xususiyatlari yotadi. Unda har bir kishi o‘zining xatti-harakatlari uchun Xudo oldida javob beradi. Shuning uchun ham nemislar uchun qonun muqaddas, barcha narsadan ustun hisoblanadi: “Die Gesetze ohne Ansehen der Person handhaben” (Mansabdan qat’iy nazar, qonun barcha uchun bir).

Bir ingliz jurnalisti tungi soat 2:00 da baxtsiz hodisaning guvohi bo‘lgan: bo‘sh yo‘lni kesib o‘tayotgan piyodani birdaniga paydo bo‘lgan mashina urib yuborgan. Jabrlangan piyodani kasalxonaga olib ketishgan. Jurnalist nemis politsiyachisidan endi nima bo‘lishini so‘raganda, politsiyachi: “Hech narsa bo‘lmaydi, agarda yashab ketsa, 50 marka jarima to‘laydi, chunki u yo‘lni o‘tish mumkin bo‘lmagan joyda kesib o‘tdi”, – deb javob qaytargan.

Stereotip tasavvurlar asosida milliy xarakterlarni ochib berishga qaratilgan bir qancha latifalar ham yaratilgan. Masalan, “Bir kuni turli millat vakillarini kino ko‘rishga yuborishibdi. Filmning mazmuni quyidagicha ekan: cho‘g‘dek yonayotgan cho‘l va qizdirayotgan quyosh. Erkak va ayol zo‘rg‘a sudralib ketishmoqda. Birdan erkak qayerdandir sersuv apelsin topadi va uni ayolga beradi. Tomoshabinlarga shunday savol berilibdi: U qaysi millat vakili?”.

Fransuz-tomoshabin shunday javob beribdi: “Faqat fransuzgina ayolga shunday sermulozamat bo‘lishi mumkin!” Rus: “Yo‘q. Bu rus! Buni qarang, ahmoq. O‘zi yeyishi mumkin edi”. Yahudiy: Yo‘q, bu yahudiy. Kim ham cho‘ldan apelsin topa olardi?” Mazkur stereotiplar vositasida fransuzlarning sermulozamatligi, ruslarning beparvoligi va yahudiylarning uddaburonligi ko‘rsatilgan.

Kishilar etnomadaniy stereotiplarni namuna sifatida qabul qilishadi va

---

<sup>28</sup> Усманова Ш. Этномаданий стереотипларнинг лингвомаданий таҳлили // Лингвист. Илмий мақолалар тўплами. VI. –Тошкент: “Akademnashr”, 2015. –Б. 120-121.

“boshqalar kulmasligi” uchun ularga moslashishga harakat qilishadi. Shuning uchun ham stereotiplar kishilarga katta ta’sir ko’rsatadi. Stereotiplarda aks etgan xususiyatlar kishilarda ham shakllana boshlaydi.

Etnomadaniy stereotiplarni o’rgangan etnopsixologiya mutaxassislarining qayd qilishlaricha, iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan millatlarda aqllilik, ishbilarmonlik, uddaburonlik, iqtisodiy jihatdan qoloq bo’lgan millatlarda esa mehr-muruvvat, samimiylik, mehmondo’sstlik kabi fazilatlar mujassamlashgan bo’ladi<sup>29</sup>.

S.G.Ter-Minasovaga ko’ra, ingliz jamiyatida kasbiy mahorat, mehnatsevarlik, mas’uliyat va h.k., rus jamiyatida esa mehmondo’sstlik, kirishimlilik, haqqoniylik singari hislatlar qadrlanadi<sup>30</sup>.

Rossiyada “Kim oxiri?” deb so’raladi yoki shunchaki navbatga turiladi. Yevropa mamlakatlarining aksariyatida navbatga turish uchun maxsus apparatdan chipta (raqam yozilgan kichik kvitansiya) yirtib olinadi va shundan keyin darcha tepasidagi elektron raqamlar ta’qib qilinadi”. Amerika va Janubiy Koreyada ham bank, pochtaxona, kasalxona va x.k.dagi navbat maxsus apparatdan yirtib olingan chiptaga muvofiq ta’qib etiladi. O’zbek madaniyatida ham navbatga turish uchun “Kim oxiri?” deb so’raladi. Ba’zan juda katta navbat bo’lgan holatlarda ro’yxat qilinadi.

V.A.Maslovaning fikricha, “stereotiplar har doim milliy bo’ladi, agar boshqa madaniyatlarda ayni stereotiplar uchrab qolsa, unda ular haqiqiy emas. Yoki ular bir biriga to’la mos kelsa ham baribir qaysidir jihatlari bilan farq qiladi. Masalan, turli madaniyatlarda navbatga turish holatlari har xil bo’ladi, shunga ko’ra stereotip muomalasi ham farq qiladi. Rossiyada “Kim oxiri?” deb so’raladi yoki shunchaki navbatga turiladi. Yevropa mamlakatlarining aksariyatida navbatga turish uchun maxsus apparatdan chipta (raqam yozilgan kichik kvitansiya) yirtib olinadi.

A.M.Jabborov bu borada quyidagilarni aytib o’tadi:

---

<sup>29</sup> Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 108.

<sup>30</sup> Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. М.: Слово, 2000. –С. 255.

1) Ijtimoiy-madaniy muhit vujudga kelishining manbalari etnosning birligi, tili, zamon va makonda tashkil topishi, xalqning turmush tarzi, boyliklari, qadriyatlarini, ijtimoiy hamda madaniy mavjudligi va hokazolardan iboratdir;

2) Xalqning o'ziga xos fe'l-atvori va psixologiyasining etnik stereotiplarini tadqiq qilish, ularni vujudga keltirgan ijtimoiy-madaniy tizimni o'rganish asnosida amalga oshirilishi kerak. Bunda xalqning o'ziga xosligini tiklash avloddan-avlodga o'tib kelayotgan stereotiplarning noaniq nusxasi ekanini hisobga olish kerak<sup>31</sup>.

O'zbek xalqining etnik stereotiplari, o'ziga xosligi, uning an'analari, marosimlari, urf-odatlarini, matallarda va hikmatli so'zlarida chuqur o'rin olgan. Xalqning asrab-avaylashi va ardoqlashi sababli, ular hozirgacha o'zining dastlabki ma'nosini yo'qotmagan va millatimiz vakilining kundalik hayotidagi eng muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng, yoshlarni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash masalasiga katta e'tibor berildi. Ayniqsa, yoshlarni ma'naviy jihatlarini shakllantirish dolzarb vazifaga aylantirilib, bu borada ko'plab tadbirlar amalga oshirildi. O'ylaymizki, milliy urf-odatlarimiz, an'ana va qadriyatlarimizga asoslanib ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish orqali yoshlar ma'naviyatini shakllantirilsa, bu shubhasiz, yorqin kelajakka xizmat qiladi.

## **II bob bo'yicha xulosa**

1. Har qanday madaniyat o'zining dunyoni idrok qilishiga asoslangan, o'z tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi. Stereotip muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir. Stereotip u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi;

2. Stereotip – muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli

---

<sup>31</sup> Bu haqida qarang: Belinskaya E. P. O'smirning etnik ijtimoiylashuvi. [Elektron resurs] URL: <http://psyera.ru/4906/etnicheskie-stereotipy-i-process-stereotipizacii>

madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir. Stereotip – u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi. V.A. Maslovaning ta'biricha, “stereotip dunyoda mavjud tip bo'lib, u faoliyat, xatti-harakat va hokazolarni belgilaydi. Stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo bo'lmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi”;

3. Stereotip hodisasi nafaqat tilshunoslarning ishlarida, balki sotsiologlar, etnograflar, kognitologlar, psixologlar va etnopsixolingvistlarning ham tadqiqotlarida o'rganiladi. Ushbu fanlarning har qaysi vakili stereotiplarning xususiyatini o'z sohasining tadqiqoti nuqtayi nazaridan belgilaydi. Shunga ko'ra, ijtimoiy stereotiplar (kasbiga, yoshiga ko'ra), *muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereotiplar* kabilarni tashkil etadi. Masalan, ijtimoiy stereotiplar shaxsning tafakkuri va muomalasini ko'rsatadi. *Etnomadaniy yoki milliy stereotiplar* eng ko'p o'rganilgan bo'lib, ular biror bir xalqqa xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi;

4. Madaniy stereotiplar madaniyat egalarining ehtiyoji, tili, dini, madaniyati, tabiati, flora va faunasi, o'zgalardan ajralib turishga intilishlari, tanlovi o'laroq paydo bo'ladi va qat'iy lashadi, o'zgarmas o'rin egallaydi; boshqa madaniy stereotiplardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.



### III BOB. O‘ZBEK TILIDA STEREOTIPLAR VA ULARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

#### 3.1. O‘zbek stereotipining antroponimlarda ifodalanishi

Ma’lumki, lingvokulturologiya fanining obyektini xalq madaniyatining tilda yorqin ifodasini o‘zida namoyon etuvchi noekvivalent leksika va lakunlar, tilning stilistik jamlanmasi, til birliklarning miflashgan ko‘rinishlari: arxitip va miqlar (asotir va rivoyatlar), tilda o‘z aksini topgan rasm-rusum va odatlar, tilning paremiologik fondi, til etalonlari, imo-ishora va ramzlar, tildagi o‘xshatish va metaforalar hamda o‘zbek nutq odatlari va nutqiy etiket shakllari tashkil etadi. Biz mazkur tadqiqot ishimizda fanning obyektini bo‘lgan stereotiplar sifatida antroponimlar, maqol va iboralar, o‘zbek tilidagi o‘xshatish va metaforalarni tahlilga oldik.

Hammamizga ma’lumki, ism inson hayotida muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, o‘zbek xalqida ismlarning o‘rni va mohiyati katta. Bola tug‘ilgach, unga yaxshi niyatlar ila ism tanlanadi, bu jarayonga nominatorlar (ya’ni, ism qo‘yuvchilar) turlicha yondashishadi. Tilshunoslikda ismlarni o‘rganuvchi bo‘lim onomastika, ya’ni nomshunoslik, kishi ismlari esa antroponimlar deya yuritiladi. Antroponimlar (ism, ota ism, familiya yoki laqab va taxallus)ning yaratilishi muayyan ehtiyoj va qonuniyatlar asosida yuz beradi.

Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz chaqaloqqa ism qo‘yishar ekan, uning baxti va omadi ismiga bog‘liq deb hisoblashgan. Ushbu e’tiqod ismlar xosiyatli va xosiyatsiz bo‘ladi, degan qarashni tug‘dirgan. “Chaqaloqqa qo‘yilgan ism uning taqdiriga ta’sir qiladi” deyilgan tasavvurlar davrlar o‘tishi bilan ismni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog‘langan, unga doimo va bir umr esh, hamdam bo‘lib yuradigan vositaga aylantira borgan<sup>32</sup>.

Darhaqiqat, o‘zbek xalqi qadimdan ism tanlashda so‘z kuchiga, uning bola ruhiyati va tarbiyasiga ta’sir ko‘rsatishiga ishongan. Masalan, chaqaloqqa tug‘ilish jarayoni va boshqa ba’zi xususiyatlariga mos nom berish, bolaga ism orqali turli

---

<sup>32</sup> Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma’nosi. – Toshkent: O‘zME, 2010 (uchinchi nashri). – B. 588.

istak va orzularning izhor qilinishi, bola ismini yashirin tutish, ismi bolaga og'irlik qilmoqda, deb boshqa ism bilan almashtirish, bolaga nomunosib xarakterli kishilar ismini qo'yimaslik, ism uchun keksalar nomini tanlash, bolani Alloh va payg'ambarlar, avliyolar, mashhur din nomoyondalari, o'tgan ajdodlar nomi bilan atash, ular ruhi bolani qo'llaydi deb bilish va boshqalar buning isbotidir.

S.E.Kenjayeveva o'zining nomzodlik dissertatsiyasida o'zbek ismlarini bag'ishlov ismlar, tasviriy ismlar va ism-istaklarga ajratib tasniflaydi<sup>33</sup>. Bag'ishlov ismlarini qo'yishda sabab chaqaloqning tug'ilishi, farzandli bo'lish biror ilohiy, muqaddas kuchning irodasi, ko'magi, ehsoni deb hisoblanadi va chaqaloqqa o'sha taxmin qilingan, e'tiqod qilinayotgan narsa, shaxs, tasavvurning nomi ism sifatida beriladi. Bag'ishlov ismlarining o'zi bolaning tug'ilishi va etnologik tushunchalarga nisbat berish orqali namoyon bo'ladi. Bu kabi ismlarni quyidagicha ma'nolar ifodalanadi:

*Keldixon, Kelsin, Mehmonoy, Mehmonbek, Lozim, Lozima* kabi nomlarda ota-onalarning tug'ilgan chaqaloqqa munosabati ifoda etiladi. *Armonboy, Intizor, Zorliq, Ijobat, Maqsadoy, Orzuniso, Tilaboldi, Tilakberdi, Umida, Umid* ismlarida esa farzandli bo'lish orzu qilib kutilgan va bolaning tug'ilishi ana shu tilaklarning amalga oshishiga ishora qilinadi. *Tasalli, Taskinoy, Taskina, Shukura, Shukriya, Qulluq, Qulluqbeka* va b.larda esa chaqaloqning dunyoga kelishi oilaning taskin topishi, tinch va osoyishta bo'lishi uchun sabab deb hisoblanadi.

*Azizkeldi, Loyiq, Manzura, Ma'qula, Munosib, Suyukli, Suyuma* kabi ismlarda bola oilaning munosib a'zosi deb qabul qilingan. *Sevinchbek, Suyundiq, Quvondiq, Quvonch, Quvontoy* ismlarida bolaning tug'ilishi ota-onaga cheksiz quvonch baxsh etgani ifodalanadi. *Qutli, Qutlikeldi, Davlatqadam, O'rozqadam* kabi ismlarda oilaga kelgan omad va muvafaqqiyatlar bolaning tug'ilishi bilan bog'lanadi va shunga ishora qilinadi.

---

<sup>33</sup> Kenjayeveva S.E. O'zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingivistik tadqiqi. nom...diss. avtoreferati. -Toshkent, 2011.

Etnologik tushunchalarga nisbat berilgan ismlarda esa, asosan, bolaning etnik kelib chiqishi e'tiborga olinadi. Bunda bolaning qaysi etnik guruhga mansubligini, o'sha etnos farzandi ekanini, uning o'tmish ajdodlari o'sha urug' yoki qabilaga mansubligini, chaqaloq o'shalarning davomchisi ekanini ta'kidlash ko'zda tutiladi. Bunday etnonimlardan yasalgan ismlar fanda etnoantroponimlar<sup>34</sup> deb yuritiladi. Masalan, *Abdal, Arg'inboy, Barlos, Bahrin, Boyqo'ng'ir, Bo'ronboy, Do'rmon, Jaloyir, Olchinbek* kabilar. Shuningdek, o'zbek ismlari tizimining katta qismini diniy tushuncha, tasavvur va aqidalar bilan bog'liq bo'lgan ismlar tashkil qiladi. Bu jihatdan ham ismlarni bir nechta guruhga ajratishimiz mumkin.

Bolaning tug'ilishi, farzandli bo'lish Ollahning xohish-irodasiga bog'lanadi: *Tangriberdi, Tangribergan, Olloberdi, Haqberdi, Xudoybergan, O'g'onberdi, Egamberdi, Berdirahmat*. Bunday ma'noli ismlar oxiri –ulla (Alloh) komponenti bilan tugagan ismlarga tegishli: Baxshulla, Nasibulla, Ne'matulla, Inoyatulla, Rizqulla, Shafqatulla, Tuhfatulla, Atoulla; ism Allohning turli atributlarini anglatuvchi nomlarga –ulla, -bergan, -berdi, -ato kabi komponentli qo'shma va so'z ism sifatida tanlanadi: *Azizulla, Ahadulla, Karimulla, Majidulla, Nurulla, Rahmonulla, Samadulla, Fathulla, Xayrulla, Karimberdi, Xudoybergan, Berdirahmat*; bolaga Allohning bandasi, quli, xizmatkori degan ma'noni anglatuvchi ismlar qo'yiladi. Bunday ismlarni alohida so'zlardan yoki komponentlaridan birida abdu-, -qul, -g'ulom ishtirok etgan nomlar tashkil qiladi: *Abdurahmon, Abdulaziz, Orziqul*; Tasviriy ismlar ham turlicha tasnif qilinadi.

**1. Bolaning tug'ilgan vaqtini tasvirlovchi ismlar:** bolaning qaysi oyda, faslda tug'ilgani tasvirlanadi: *Asad, Ashura, Ashur; Bahora, Bahorniyoz; Ko'klamoy; Robiya, Robiyabu; Rajabbergan, Ramozon; Muharram; Savurboy, Savura; Safarberdi, Safarkeldi, Safarmurod; Sunbula; Qurbonoy, Qurbonsuluv; Kuzboy, Kuzkeldi; Yozboy, Yozxon, Yozbeka, Yozberdi* va boshqalar; ismda bola haftaning qaysi tug'ilgani tasvirlanadi: *Jumaboy, Jumakeldi, Jumaniyoz; Dushan // Duyshanba, Shanba, Shanbagul; Bozorboy, Bozorgul; Anna // Odina, Annaberdi,*

---

<sup>34</sup> Begmatov E., Uloqov N. O'zbek onomastikasi (bibliografik ko'rsatkich). – Namangan, 2008. – B. 134-145.

*Annasuluv* va boshqalar; chaqaloq sutkaning biror payti, onida tug‘ilgani tasvirlanadi: *Azonboy; Saharbeka, Subhida, Subhiya, Subhiniso; Tongboy, Tonggul, Tongnur, Tongotar, Tongotmish; Namoz, Namozgul* va boshqalar; bir qator ismlarda chaqaloq tug‘ilgan paytda tabiatning biror hodisasi yuz berayotganligi tasvirlanadi: *Yomg‘irboy, Yomg‘irchi, Yog‘inboy; jalaboy; Yildirim (Chaqmoq); Oydin; Dovulboy, Dovulli; Do‘lboy, Do‘lchi; Oyto‘ldi, Oyto‘liq; Qirovboy (Shudring); Qorbola, Qoryog‘di, Qoryigit, Qorkeldi, Qorli* va boshqalar;

## **2. Chaqaloqning boshqa farzandlar orasidagi o‘rnini, tug‘ilish navbatini tasvirlovchi ismlar.**

Chaqaloqning boshqa bolalar qatoridagi o‘rnini, nechanchi bola ekanini tasvirlash uduni ham mavjud. Masalan, dastlabki, birinchi farzand *Avvalboy, To‘ng‘ich, Kattabek deb ismlansa, undan keying va oxirgi bolalar Kenja, Kenjabek, Kenjam, Kenjasuluv, Kenjatoy, Kichiktoy, Kichikqiz, Ko‘rpa (oxirgi bola), Ko‘rpagul, Ko‘rpago‘zal, Xulosa, Miyonjon (O‘rtancha)* deb nomlanadi. Ba‘zan ushbu tushuncha son turkumidan yasalgan ismlar orqali tasvirlanadi: *Uchboy, Uchim, Chori, Chorikeldi, Panji, Panjibibi, Panjigul, Oltiboy, Sakkizxon, To‘qqizboy, To‘qqiznazar* va b.

**3. Bola tug‘ilgan joyni tasvirovchi ismlar:** *Yobonboy // Yovon, Dalaboy, Yozloq, Yo‘lberdi, Yo‘lkeldi, Yo‘lturdi* va b.

## **4. Bolani chiroylilik, go‘zallik nuqtai nazaridan tasvirlovchi ismlar.**

Ota-onalar o‘z farzandining (ayniqsa, qizlarning) kelishgan, chiroyli, go‘zal odam bo‘lib ulg‘ayishini orzu qilishadi. Shu sabali o‘zbek antroponomiyasida go‘zallik motivi bilan bog‘liq ismlar sezilarli miqdorni tashkil etadi: ism bevosita go‘zallik, nafosat tushunchalarini ifoda etuvchi so‘zlardan tanlanadi: *Ko‘rkamoy, Suluvbeka, Suluvnoz, Chiroygul, Barno, Vajiha (go‘zal, dilbar), Vajhiya (oy yuzli), Vasilat (ko‘rkam, kelishgan), Vasima (chiroyli), Vosil, Vosila (ko‘rkam, kelishgan), Jamol, Jamola, Zarofat (ko‘rkam, ajoyib), Zebo, Lobar, Malohat, Nafosatxon, Nigora (go‘zal), Husniya, Husnijamol, Husnikamol* va b.

Ism go‘zallik ramzi bo‘lmish yorug‘lik, nur tushunchalarini anglatuvchi so‘zlardan tanlanadi, bolani ana shunday xususiyatga ega bo‘lsin deb tilashadi: *Balqi (barq urgan, yashnagan), Balqin (yaltiroq, chaqnab turuvchi), Bahiya (nurli,ravshan), Zulfinur, Anvar, Anvara, Nizora (go‘zallik nuri), Nurbadan, Nurliro‘y, Nurliqo, Nurlig‘oyat, Shamsinur.*

Ism go‘zallik ramzi bo‘lmish qimmatbaho ma‘danlar, buyumlar nomiga nisbat berish orqali yasaladi: *Kumush, Kumushgo‘zal, Kumushjamol, Kumushoy, Oltinoy, Oltinbibi, Gavharoy, Yoqutxon* va b.

Ismga go‘zallik ramzi bo‘lmish xayoliy mavjudotlar nomi asos bo‘ladi va bola o‘shlarga o‘xshasin deb tasvirlanadi: *Parizod, Parizoda, Parivash, Pariniso, Pariruh, Hurbeka, Hurzod, Hurzoda, Huriniso, Huriya, Hurqiz, Hursanam.*

Ismning nominativ asosini ko‘rkamlik va nafosat namunasi bo‘lgan o‘simliklar, ayniqsa, gullar nomi tashkil etadi: gullar va o‘simliklar nomi: *Atirgul<sup>35</sup>, Binafsha, Boychechak, Bo‘tagul, Gulbeka, Gulbeka, Gulguna, Zarchechak, Lolagul, Lolaniso, Lolaruh, Lolaro‘y, Nargiza, Nastarin (oqgul), Oqgul, Ra‘no, Savsanoy, Safsargul, Sumanso (jasmin), Sunbula (o‘simlik);* - daraxtlar va ularning guli: *Bodomgul, Oylargul (shaftoli guli), Sambit (tol), Sarvi, Sarvinio (daraxt), Charos;*

Ismning nominativ asosini hayvonlar va qushlar nomi tashkil qiladi: Hayvonlar nomi: *Bo‘tako‘z, Kiyikjmol, Suvsar, Suyg‘un (kiyik), Qunduz, Qundubeka, Qunduzoy, G‘azola (kiyik,ohu);* Qushlar nomi: *Sulgun // Suyqun (qirg‘ovul), Qaldirg‘och, Qarlig‘och, Anduvoch, To‘ti, Maynaxon, To‘rg‘ay* va b.

**5. Bolaning tug‘ilgan paytdagi ko‘rinishi va anatomik holatini tasvir holatini tasvirlovchi ismlar.** Ma‘lumki, ba‘zi bolalar tug‘ilganida badanida, ba‘zi a‘zolarida g‘ayritabiiy xususiyatlar bo‘lishi mumkin. Kishilar bu holatlarni Yaratganning mo‘jizasi, qudrati tufayli yuz bergan deb hisoblashgan. Shu sababli,

---

<sup>35</sup> Баскаков Н.А. Элемент гул « роза, цветок» в составе каракалпакских имен // Ономастика Средней Азии. – М. : Наука,1978. – С. 138-144.

ba'zan bunday bolalarga *Qudrat, Qudratulla, Hayrat, Ijoza (karomatli), Karomatxon* kabi ismlar qo'yishgan.

Xalq orasida mana shunday belgilar bilan tug'ilgan bolalarga nisbatan "ismi o'zi bilan tug'ilgan bola" degan qarash va ibora mavjud. Bunday nomlarda chaqaloq tug'ilishi bilan ma'lum bo'lgan xususiyatlar unga berilgan ism orqali tavrirlanadi.

1) bolaning dunyoga kelgandagi holati tasvirlangan ismlar: *Chalaboy* (bola muddatiga yetmasdan oldin 7-8 oylik bo'lib tug'iladi), *Pardaboy, Pardaniso, Pardaboy, Eshparda (ona qornida pardaga o'ralib tushadi), Tuvoq, Tuvoqberdi, Oytuvoq (pardali)*;

2) bola tug'ilganda terisining biror joyida (ko'pincha yuzida, yelkasida, qo'lida, kuraklari terisida) qizil yoki qora dog'lar va xol mavjud bo'lgan. Ushbu nuqsonlar ko'payib yoki yoyilib, kattalashib ketmasin, bolaga qandaydir zarar keltirmasin degan maqsadda o'sha dog', belgilarning nomi (oddiy so'zlar) ism sifatida tanlangan. Masalan bunday ismlarga xol (meng), anor, toj, shox bilan bog'liq ismlarni kiritishimiz mumkin: *Xoldor, Xolyor, Xolida, Oyxol, Nurxol, Xolchuchuk; Menggul, Mengjamol, Mengliboy, Mengliyor, Mengoyim, Meylixon; Anorboy, Anora, Anorgul, Norboy, Norxon, Norbadan, Norbeka, Norbo'ta, Norgo'zal, Norxo'ja, Norqobil* (bunday ismlar qizil rangdagi xol yoki dog'i bor chaqaloqlarga qo'yilgan); *Tojixon, Tojibar, Tojigul, Tpjimurod, Tojiqiz, Umrtoj, Tojinor, Nortoji, Oytoji* (toji so'zi ham xol, dog' ma'nosida bo'lib, chaqaloq badanida qora, qizil rangda bo'lgan); *Shoxli, Shoxdor* (bu ism ko'proq boshida do'mboqlik belgisi bo'lgan bolalarga qo'yilgan); Shuningdek, o'zbek xalqida shunday ismlar borki, ularga chaqaloqni himoya qilishning vosita va usullarini tasvirlovchi ismlar deyiladi. Bunday ismlar etnografik va onomastikaga oid adabiyotlarda "asrovchi nomlar", "himoya nomalari", "tuban nomlar", "xunuk ismlar" deb ataladi.

Ma'lumki, juda qadimgi davrlardan beri ota-onalar o'z farzandini qandaydir bolaning dushmanlaridan himoya qilib kelgan. Bunday harakat chaqaloqqa beriladigan ismda ham ifodalangan. Bunda bolaning dushmani deb bilingan yovuz

kuchlarni boladan uzoqlashtirish koʻzda tutilgan. Shu sababli bolani yomon, xunuk, yoqimsiz, bu bola bizning bolamiz emas, uni topib, sotib olganimiz kabi tavsiflashgan.

Bu choralar orasida bola irodali, u yovuz kuchlar hujumiga bardosh bera oladi deb umidlanish va oʻshanga mos ravishda chaqaloqni mahkam, mustahkam narsalarga qiyoslash alohida oʻrin tutgan. Masalan, *Devona, Yomonbola, Yobonqul, Toshbolta, Toshboy, Poʻlat, Poʻlatoy, Temir, Noʻxta, Sovutboy, Boltaboy, Bolgʻaboy, Oʻroqboy, Anzur, Anzura* (piyoz), *Affon* (badboʻy), *Norachchiq, Sarimsoq, Tolhak* (achchiq, kakra), *Turushboy* (shoʻr, yoqimsiz), *Begona, Boʻlak, Digar, Tabdila* (almashtirilgan), *Togʻaymurod, Togʻaygul, Togʻayqiz* (togʻasi uyida tugʻilgan qiz), *Oʻlja, Oʻlpon* (bolani dushmanlardan asrash, ularni aldsh maqsadida uni birovning bolasi, sotib topib olingan bola deb atashgan); *Berk, Berkboy, Izolat* (himoyali), *Mahsura* (toʻsilgan), *Osim, Osima* (qoʻriqlangan), *Tabiya* (himoya qilingan), *Qoʻriqboy* (himoyalangan), *Himoyat* (himoya ostiga olingan) (bunday ism berilgan bolalar “bola himoya ostiga olingan” deb tasvirlangan).

Yuqorida ismlar tasnifini keltirganda ism-istaklarni ham tilga olgandik. Antroponomiya tizimining salmoqli qismini onomastikada ism-istaklar yoki *dezirativlar*<sup>36</sup> deb yuritiluvchi ismlar tashkil qiladi.

Ism-istaklar deyilganda farzandli boʻlgan ota-onaning, shuningdek, chaqaloqqa nom berishda ishtirok etayotgan qarindoshlar, yaqinlarning endigina dunyoga kelgan norasidaga izhor qiluvchi niyatlari, xilma-xil orzulari aks etgan ismlar tushuniladi. Bunday istaklar nihoyatda xilma-xil va koʻp qirrali boʻlib, ijobiy munosabat va manolarni ifodalaydi. Mana shunday hollarda bolaga berilayotgan ismning maqsadini aniq biror niyat, xohish, tilak, umid, ishinch tashkil qiladi. Ism tabiiy holda man ashu tilaklarni anglatuvchi soʻzlardan tanlanadi.

---

<sup>36</sup> Kenjayeva S.E. Oʻzbek antroponimlarining semantik va sotsiolingivistik tadqiqi. nom...diss. avtoreferati. -Toshkent, 2011.

Ism-istaklarda tilak, istak ismning ma'no-motivini tashkil qiladi. Ismistaklarda chaqaloqqa aytilayotgan, bildirilayotgan yaxshi niyatlar bo'rtib ifodalanadi, ism ana shu istakning turli ko'rinishlarini anglatadigan so'zradan yasaladi va tanlanadi. Masalan, ota-ona farzandinihg jasur, dovyurak, bo'lib ulg'ayishini istasa, unga *Jasur, Qo'rqmas, Dovyurak, Botir* ismlari beriladi. Bunday ismlarni quyidagicha tasniflaymiz: bolaning sog'-salomat ulg'ayishi istagini anglatuvchi ismlar: - bolaning sog'lom o'sishini istash maqsadi: *Salim, Salima, Eson, Esonkeldi, Omon, Omonberdi, Omonoy, Omonturdi* va b.;

Farzandi turmasdan o'layotgan oilalarda navbatdagi kasalmand bolaga kasalni yengadi, xavf chekinadi, chaqaloqning dushmani bo'lmish yovuz kuchlar taslim bo'ladi kabi maqsadli ismlar berilgan: *Yengadi, Yengildi, Yovqaytar, Yovqochdi, Tasli, Taslima, Qaytar, Qaytgan* va b.;

Bolasi turmasdan nobud bo'lavergan oilalarda navbatdagi bolaning sog'-omon yashab ketishiga umid qilganlar: *So'lmas, So'lmasoy, So'nmasin, Tinchar, Turaqol // Turag'ol, Turdiniso, Turjon, Turar, Tursun, Turg'un, To'xta, To'xtar, To'xtasin, O'lmas, O'ng'al, Oyto'xta, Tektur, Turomon*;

Bolaning umri uzoq bo'lsin, umri bilan bergan bo'lsin degan maqsadni anglatuvchi ismlar qo'yilgan: *Ko'pyashar, Manguberdi, Umrboqi, Umrzoq, Umriniso, Umrixol, Umrsuyun*;

Ulg'aysin, unib-o'ssin degan maqsadda qo'yilgan ismlar: *Ulg'ay, Ulg'aysin, Ko'karsin, Niholboy, Nihola, Niholbib, Unar, Unsin, Unsinoy, O'sar, O'skin, O'ssin*;

Ota-onalar farzandlari ko'p bo'lishini, uylari bolalarga to'lishini istaganlar: *Ko'paysin, Ko'pbo'lsin, Uyto'l, Uyto'la, Uyto'lsin, Uyto'ldi* va b.;

Ota-onalar tug'ilgan chaqaloq oldingi farzandlarga, oila a'zolariga qo'shilishib, ergashib ulg'ayishini istaganlar: *Jalg'ash, Ilash, Ilashsin, Tirkash, Ulansin, Ergash, Hamdam, Hamdambo'l, Jo'raboy, Jo'raxon, Eshbo'l, Eshbo'lsin, Eshomon, Eshtur, Eshturdi, Eshturdi, Eshtursun, Eshto'xta, Sherikboy, Sherikbo'l* va b.;



Ba'zi hollarda bola otasi onasi, akasi yoki opasining vafotidan keyin dunyoga kelgan. Bunday hollarda tug'ilgan farzand marhumlar o'rnini bossin, bola marhum ota yoki onasidan "yodgor" deb hisoblangan: *O'rinboy, O'rinbosar, O'rinbuvi, O'rinbadal, Yodgor, Yodgora, Yodgorqiz* va b.;

Bolaning ulg'ayib ota-onasiga, qarindoshlariga mehribon, g'amxo'r bo'lishini istash maqsadi asosida qo'yilgan ismlar: *Mehribek, Mehribon, Mehribonu, Mehrdil, Mehriniso, Mehrisuluv, Mehriya* va b.;

Bolaning halol, haqgo'y, adolatli inson bo'lishini istash maqsadi asosida qo'yilgan ismlar: *Adolat, Miradl (adolatli, haqgo'y), Foruh (haqgo'y), Harros (haqiqat tarafdori), Haqiqat, Dodar (adolatli, odil)* va b.;

Bolaning pokiza, saramjom-sarishta inson bo'lishini istash motivi asosida qo'yilgan ismlar: *Bejirim (ozoda, gunohsiz, ko'rkam), Gulpok (gullardek beg'ubor, pokiza), Zarif, Zarifa (ma'suma, pokiza), Zilola (tiniq suvdek pokiza), Ifofat (poklik, pokizalik), Ma'sum, Mubarra (toza, gunohsiz), Mubila (sof, musaffo), Najobat (pok, pokiza, oqsuyak naslidan), So'lim, So'limbibi, So'limoy (beg'ubor, pokiza, chiroyli), Toza, Tozagul (pokiza, ozoda), Pokiza (toza, ozoda, gunohsiz),* va b.;

Bolaning ziyrak, zukko, tezfahm bo'lishini istash motivi asosida qo'yilgan ismlar: *Ayniya (ziyrak, o'tkir zehnli), Badiha (topqir, zukko), Basirat (o'tkir zehnli, idrokli, ziyrak), Binajon (o'tkir ko'zli, ziyrak), Zakia (ziyrak, sezgir, tezfahm), Manzalat (uddaburon, epchil), Mahorat (ustakor, epchil, qobiliyatli), Topqir (epchil, tadbirkor), Fatonat (ziyrak, idrokli), Fahima (ziyrak, aqlli), Ehtiyotxon (ziyrak, xushyor);*

Bolaning kamtar bo'lishini istash maqsadi asosida qo'yilgan ismlar: *Bayir, Bayri (jaydari, soddadil, oqko'ngil), Basit (sodda, kamtarin), Jo'ntoy (kamtarin, sodda), Kamina (xoksor, kamtarin), Kamtar (kichik fe'l), Musallim, Musallima (kamtar, xoksor);*

Bolaning yaxshi muomalali, shirinso'z, so'zamol bo'lishini istash maqsadi asosida qo'yilgan ismlar: *Biyron (ravon tilli, chechan), Go'yoxon (so'zamol, chechan), Daqiqa (shirinso'z, latif so'z sohibasi), Zarbonboy,*

*Zabonbibi, Zabona* (biyron tilli), *Zaliqa* (go‘zal nutq sohibi), *Labshakar* (shirin tilli, dilkash), *Fasih, Fasiha* (chiroyli, ravshan nutq sohibasi), *Fasohat* (chiroyli, ta’sirchan nutq sohibi), *Xushxon* (yoqimli ovoz sohibi, shirintil, xushsuxan), *Chechan* (so‘zamol, ravon nutq sohibi), *Notiqa* (burro tilli, nutq mohiri, so‘z ustasi) va b.;

Bolaning mehnatkash, mehnatsevar bo‘lishini istash maqsadi asosida qo‘yilgan ismlar: *Tirishqoq, Tirishqul* (harakatchan, mehnatkash), *Akif, Akifa* (g‘ayratli, xudojo‘y), *Omilboy, Omila, Sohir, Sohira* (o‘z kasbining mohiri), *Foila, Foilabibi, Foilaxon* (mehnatsevar) va b.;

O‘zbek ismlarini bu jihatdan tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, antroponimlar millatning, xalqning milliy urf-odat va an‘analari, dunyoqarashi, madaniyatini o‘zida aks ettira oladi. Ismlar shaxslarni o‘zaro farqlash ehtiyojidan tashqari ijtimoiy-lisoniy vazifasiga ko‘ra ism beruvchilar (nominatorlar)ning muayyan maqsadini ham ifodalaydi. Mana shu maqsad bolaga ism tanlash va yasash uchun asosiy, yetakchi motiv hisoblanadi. Mana shu maqsadda nominatorning, bevosita u mansub bo‘lgan xalqning milliy-madaniy xususiyatlari o‘z ifodasini topadi. Shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, o‘zbek antroponimlari ham lingvokulturologiyaning obyekti bo‘la oladi.

### **3.2. O‘zbek tilidagi o‘xshatish va metaforalarning lingvokulturologik xususiyatlari**

Bugun zamonaviy tadqiqotlarda o‘xshatishlarning lingvokulturologik jihatlariga katta e’tibor berilmoqda. “Lingvokulturologiya” kitobining muallifi V.A.Maslova o‘xshatishlarda muayyan xalqning milliy dunyoqarashi aks etishini ta’kidlab, bu fikrini rus, belorus, va qirg‘iz tilida qo‘llanuvchi o‘xshatish qurilmalari tahlili asosida dalillaydi. V.A.Maslova, shuningdek, muayyan xalqning obrazli tafakkur tarsi xususan, o‘sha xalq tilida qo‘llanuvchi o‘xshatishlarda ham yaqol namoyon bo‘lishini ta’kidlaydi<sup>37</sup>.

---

<sup>37</sup> Маслова В.А.

Olimaning bu fikrini o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar ham tasdiqlaydi. “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” uchun yig‘ilgan materiallar shundan dalolat beradiki, xalqning muayyan predmet, belgi, harakatholatga munosabati, assotsiativ fikrlash tarsi o‘xshatishlarda ham namoyon bo‘ladi. Jumladan, buni o‘zbek tilidagi inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlarda ham ko‘rishimiz mumkin.

Tilshunos olim D.Xudoyberganova o‘zining “Matnning antroposentrik tadqiqi” nomli monografiyasida o‘zbek tilidagi inson haqidagi turg‘un o‘xshatishlarni quyidagi ma’noviy guruhlariga tasnif qiladi:

1. Inson a‘zolari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.
2. Insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.
3. Insonning jismoniy xususiyati bilan bog‘liq o‘xshatishlar.
4. Insonning ovozi bilan bog‘liq o‘xshatishlar.
5. Inson nutqi bilan bog‘liq o‘xshatishlar.
6. Insonning harakati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.
7. Insonning holati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar.
8. Insonning hatti-harakati bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar<sup>38</sup>.

Bu o‘xshatishlarning har biriga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

***Inson a‘zolari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘xshatishlar:*** *alifdek / sarvdek / sambitdek / shamshoddek tik qomat, angishovnadek kichkina og‘iz, anorday qizil yuz, burgutnikiday o‘tkir ko‘z, gilosday qizil lab, guruchday oppoq, mayda tish, zulukdek qora qosh, ipday ingichka qosh, kulchadek yumaloq yuz, tunday qora soch, cho‘michday katta burun;*

***Insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq o‘xshatishlar:*** *azroilday xunuk, bo‘rdoqiday/ meshday semiz, devday bahaybat, zanidek qop-qora, niholday nozik, oyday go‘zal, suqsurday chiroyli, terakday novcha, chigirtkaday /arvohday / kosovday / cho‘pday ozg‘in;*

***insonning jismoniy xususiyati bilan bog‘liq o‘xshatishlar:*** *ajdarhodday kuchli, ayiqday baquvvat, alpday pahlavon, gulday nafis;*

---

<sup>38</sup> Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. Monografiya. – Toshkent: Fan.. 2013.

**insonning ovozi bilan bog'liq o'xshatishlar:** ayiqday / sherday / arslonday / tuyaday bo'kirmoq, na'ra tortmoq, bo'riday uvillamoq, momaqaldiraqday gumburlamoq, qo'ng'iroqday jarangdor;

**inson nutqi bilan bog'liq o'xshatishlar:** avtomatday gapirmoq, bedanaday / bulbulday sayramoq, itday qopmoq, itday irrillamoq, chumchuqdek chirqillamoq;

**insonning harakati bilan bog'liq o'xshatishlar:** bir qop yong'oqday shaldir-shuldir, avliyoday begunoh, ammanniing buzog'idek bo'sh, ipakdek muloyim, itday sadoqatli, molday befahm, musichaday beozor, sutday oq, tayoqday to'g'ri, tulkiday ayyor, eshakday qaysar, qo'yday yuvosh;

**insonning holati bilan bog'liq o'xshatishlar:** baqaday / shamday / haykalday / toshday qotmoq, bezgak tutganday qaltiramoq, yosh boladay quvonmoq, dokaday / devorday / bo'zday oqarmoq, tilla topgan gadoyday sevinmoq, to'rvasini yo'qotgan gadoyday talmovsirammoq, yetimchadek mung'aymoq, yog'day erimoq, igna ustida o'tirganday betoqat, ilonday to'lg'anmoq, kuydirgan kalladay tirjaymoq, lavlagiday / sholg'omday qizarmoq, suvga tushgan bo'lka nonday bo'sharmoq;

**insonning hatti-harakati bilan bog'liq o'xshatishlar:** yelimday yopishmoq, yeb qo'yguday qaramoq, yov quvganday yugurmoq, itday / devday / eshakday / molday / qulday ishlamoq, och kalxatday yopirilmoq, ko'z qorachig'iday asramoq, maymunday / echkiday sakramoq, molday / itday / cho'chqaday / ho'kizday ichmoq, toshbaqaday sudralmoq, o'qdek otilib chiqmoq.

O'zbek tilidagi inson bilan bog'liq o'xshatishlar shuni ko'rsatadiki, ularda insonning holati va harakatini ifodalovchi o'xshatishlar miqdori boshqa ma'naviy guruhdagi o'xshatishlarga nisbatan ko'p. Demak, bundan shunday xulosaga kelish mumkin, insonning harakat o'xshatish uchun etalon sifatida tanlangan so'zlar ham o'zbek tilining lingvokulturologik xususiyatlarini ko'rsatuvchi stereotipdir.

Insonning xarakteri xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan o'xshatishlarda o'zbek tilida so'zlashuvchi til egalarining etalon sifatida turli hayvon va jonivor turlarini bildiruvchi so'zlardan ko'proq foydalanganligi ma'lum bo'ladi. Masalan,

itday sadoqatli, molday befahm, musichaday beozor, eshakday qaysar (xarakter bilan bog‘liq); itday ishlamoq, echkiday sakramoq, toshbaqaday sudralmoq, ilonday sudralmoq, bulbulday sayramoq (harakat bilan bog‘liq o‘xshatishlar). O‘zbek tilida o‘simlik va meva nomlarining o‘shatish etaloni sifatida qo‘llanishi ham ko‘p uchraydi. Bunday o‘xshatish etalonlariga *sambit, shamshod, sarv, terak, lavlagi, sholg‘om, gilos, olma, yong‘oq*, kabi so‘zlarni misol sifatida keltirish mumkin. Hayvonni bildiruvchi so‘zlarning o‘xshatish etaloni sifatida qo‘llanishi shaxsning subyektiv munosabatini bildirish harakati bilan bog‘liq ekanligi yaqqol seziladi. Masalan, *it* so‘zi etalon bo‘lib kelgan o‘xshatishlar soni o‘ndan ortiq bo‘lib, ularning barchasi insonga nisbatan qo‘llangan. *Ilon* etaloni ham shunday xususiyatga ega.

V. Maslova o‘xshatishlarning antroposentrik jihatlariga alohida e‘tibor berib shunday deb yozgan edi: “O‘xshatilayotgan obyektlarning bir-biridan uzoq bo‘lgan turli doiralarga mansub ekanligi o‘zida bir-birini taqazo etuvchi qo‘shimcha assotsiatsiyalarning butun boshli zanjirini namoyon etadi, ular axborotning to‘laqonli bo‘lishini ta‘minlashi bilan birga ta‘sirchanlikni ham kuchaytiradi; o‘zaro o‘xshatilayotgan obyektlar voqelikda bir-biridan qancha uzoq bo‘lsa, ulardagi ta‘sirchanlik shuncha yorqinlasha boradi. O‘xshatishlarning evristik vazifasi yana shunda ko‘rinadiki, ular dunyo realiyalarini chuqurroq va kengroq bilib olishga, ularning turli va ko‘pincha kutilmagan qirralarini anglab olishga imkon beradi”<sup>39</sup>.

Umuman, o‘xshatishlar lingvokulturologiyaga oid adabiyotlarda metafora, metonimiya, maqol va iboralar kabi tilning lingvomadaniy boyligi sifatida e‘tirof etiladi<sup>40</sup>. Bu kabi madaniy birliklar ba‘zida biror etnosga xos mentallikni, shuningdek, real voqelikni lison vositasida ifodalash darajasini ko‘rsatuvchi dalilhamdir. Bu shu xalqning dunyoqarashiga oid stereotiplardir. Shuning uchun ular o‘zida xalqning ijtimoiy-ma‘naviy jihatdan rivojlanishini ham ko‘rsatadi.

<sup>39</sup> 1 Маслова В.А. Человек в зеркале сравнения // <http://www.gumer.info/biblioter-Burs/Linguist/maslova/06/php>.

<sup>40</sup> Qarang: Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы.–М., 1997; Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2000; Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология. – М., 2002; Иванова С.В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц: Дисс. ... д-ра филол.наук. –Уфа, 2003.

### 3.3. Paremiologik birliklarda milliy stereotip ifodasi

O'zbek xalqi purma'no so'zga, o'git-u naqlarga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimiz azaldan o'zining hayotiy muammolarini – mehnat mashaqqati, g'amanduhi, rohat-farog'ati, muvaffaqiyat va mag'lubiyati, rasm-rusumlari – hammahammasini maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda ko'zgudagidek aksettirib keladi. Xalqning til boyligi – uning bo'yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi. O'zbek tili – ona tilimizning juda boy, ma'nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan.

Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shaklliy barqarorlik ustunlik qiladi<sup>41</sup>. Maqollar ham xalqning milliyliigi, urf-odatlarini, asriy tajribalar natijasida chiqargan xulosalarini o'zida kas ettiruvchi xalq og'zaki ijodi namunasi sanaladi. Maqollarda ma'lum ma'noda millatning madaniyati aks etadi. Shu sababli o'zbek xalq maqollarini ham lingvokulturologiyaning obyektini – stereotip sifatida tahlilga tortishga harakat qilamiz.

*Bir mayizni qirq kishi bo'lib yeydi.* O'zbek xalqiga xos bo'lgan eng oliy xususiyatlardan biri ahillik, inoqlikdir. Bu bizga ajdodlarimizdan singgan fazilatdir. Bir mayizni qirqqa bo'lib yeyishlik, o'zi yemay o'zgaga ilinishlik xalqimizga xos bo'lgan insoniy fazilatlarga ishora qiladi.

*Bitta qaldirg'och kelgani bilan bahor bo'lmas.* Qaldirg'och xalqimizda yaxshilik, qut-baraka elchisi sifatida e'zozlanadi. Shuningdek, u bahor darakchisi. Maqolning lug'aviy ma'nosiga e'tibor qiladigan bo'lsak, u mazmunan "Qars ikki qo'ldan chiqadi" maqoliga sinonim hisoblanadi va avvalgi maqolga hamohang tarzda uni to'ldiradi. Aynan qaldirg'och obrazining olinganiga sabab

---

<sup>41</sup> Mirzayev T., Musoqulov A., Sarimsoqov B. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent. 2013. – B. 5.

xalqimizda bu qushga nisbatan o'zgacha qarash, mehr tufayli. Bu esa maqolda etalon sifatida o'z aksini topgan.

*Bug'doy noning bo'lmasa ham bug'doy so'zing bo'lsin.* O'zbek xalqi eng mehmondo'st, xushkalom xalqlardan sanaladi. "Mehmon otangdan ulug'" degan naqlni o'ziga bayroq qilib oladi-da, o'zi yemay mehmonga tutadi, borini unga ilingisi keladi. Agar mehmonning qornini to'qlashga qurbi yetmasa, hech bo'lmaganda ikki og'iz shirin so'zi bilan uni siylagisi keladi. Shu ma'noda bug'doy so'zi o'zbekona madanitaimizni o'zida aks ettirgan etalon sifatida kelgan.

*Bosh omon bo'lsa do'ppi topilar.* Insonning yaxshi, yorug' kunlarga, sog'lik, tinchlik-xotirjamlik bo'lsa, yaxshi, yorug' kunlarga umidi, o'zini taqdir ixtiyoriga topshirib tavakkal qilish ma'nolari ifodalangan. Bosh kiyim sifatida bu yerda qalpoq, shapka, shlyapa so'zlari emas, do'ppi so'zi keltirilgan. Ma'lumki, do'ppi o'zbek xalqining milliy bosh kiyimi sanaladi. Shu o'rinda lingvomadaniy birlik sifatida etalon – stereotip vazifasini bajarib kelgan.

*Do'ppining ichida odam bor.* Bu maqol mazmunan "Devorning ham qulog'i bor" maqoliga o'zaro sinonim hisoblanadi. Bu maqolning tahliliga to'xtalsak, har bir narsani har joyda aytmaslik kerakligini uqtiradi, kishini ogohlikka xushyorlikka chorlaydi. Unda ham etalon sifatida do'ppi so'zi olingan.

*Elakka chiqqan xotinning ellik og'iz gapi bor.* Bu maqolni eshitgan har bir inson xayoliga g'iybatchi ayol haqida fikr yuritilgan degan o'y keladi. Lekin bu maqol bunday ayollar haqida emas. Aslida bu maqolda xalqimizga xos bo'lgan o'zga millatlarda takrorlanmas xususiyat aks ettirilgan. Negaki, bir insonni ko'rgan o'zbek ayollari o'sha insonning oilasi, farzandlarini, hattoki, qarindoshurug'larining ham hol-ahvolini ham so'raydi. Bu diniy manbalarimizda ham qayd etilgan. Chunki, musulmon kishining boshqa bir musulmon kishidan ahvol so'rashi uning islomdagi farzi sanaladi. O'zbek ayollarining bu xususiyatlaridan kelib chiqqan "Elakka chiqqan xotinning ellik og'iz gapi bor" maqolida ijobiy xislat ifodalangan.

*Er-xotinning urushi – doka ro'molning qurishi.* Oila muqaddas dargoh sifatida e'zozlanadi. Bu o'zbek xalqiga xos asosiy stereotiplardandir. Lekin

mana shu muqaddas dargohda ham ba'zan ahamiyatga molik bo'lmagan janjallar uchrab turishi hech birimizga sir emas. Ma'lumki, janjallarning aksariyat qismi uzoq muddatli gina bilan yakun topadi. Ammo oiladagi er-xotin urushi kamdan-kam hollarda araz bilan yakunlanadi. Biroq bu arazning vaqti ma'lum bir muddat ya'ni doka ro'mol qurishiga ketgan vaqt kabi qisqadir. Shuning uchun xalqimizda "Er-xotinning urushi – doka ro'mol qurilishi" kabi maqollar yuzaga kelgan. Ushbu maqolda etalon sifatida olingan doka ro'mol ham milliy kiyimlarimizning tarkibiy qismi bo'lgan bosh kiyim hisoblanadi. O'zbek ayollari bu bosh kiyimdan turli xil marosimlarda foydalanishadi.

*Hashar qildim-uy qurdim, Bunda ko'p hikmat ko'rdim.* Hashar o'zbek xalqiga xos bo'lgan udum sanaldi. Ya'ni uy ko'tarmoqchi (qurmoqchi) bo'lgan yoki mamalakat obodonchiligi yo'lida qilinadigan umumxalq mehanatidir. Bizga ma'lumki, hasharga do'st-u birodarlar, yaqin qarindoshlar yordamga keladi. Hasharda birdamlik, ahillik kabi samimiy tuyg'ular o'z aksini topadi. Shuning uchun, hashar qilgan inson ko'p hikmatlarning guvohi bo'ladi. Ya'ni do'stlarining sadoqatini, mehribonligini ko'radi. Bu maqolda etalon sifatida olingan hashar so'zi lingvomadaniy birlik sanaladi.

*Holva degan bilan og'iz chuchimas.* Bu maqol mazmunan "Olma pish, og'zimga tush" maqoliga sinonim. Zamirida, dangasalik, tayyorga ayyorlik kabi xislatlarni qoralab, mehnatsevarlikka, o'zi ishlab, halol mehnat bilan pul topishga chorlaydi. Ya'ni inson biror nimani orzu qilganligi bilan u amalga oshib qolmaydi, uning amalga oshishi uchun, albatta, harakat qilish kerakligi uqtirilmoqda. Etalon bo'lib kelgan so'z "holva" o'zbek milliy shirinligi hisoblanadi.

*Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyganda ko'r.* O'zbek xalqining to'yi hech bir xalqda takrorlanmas urf-odatlariga boydir. Ayniqsa, nikoh to'ylari o'zgacha shukuh bilan o'tadi. Bu shukhga kelin yanada o'zgacha zavq bag'ishlaydi. Xalqimiz hamisha azal-azaldan mukammallikka intilgan. Shuning uchun ham kelinni shunday mukammallik darajasida ko'rishga intilgan. Ya'ni epli ham sepli ham bo'lishini xohlaganlar. Kelinning sepi uning ziynati, fayzi sanaladi.



O'zbek xalqida qizga, ya'ni bo'lajak kelinga sep, sarpo-surug' qilish odati katta ahamiyatga ega.

*Non ham non, ushog'i ham non.* Dunyoda o'zbekchalik nonga yuksak hurmatda bo'lgan xalq bo'lmasa kerak. Ulug'larimiz ham "Nonday aziz bo'lg'in" deb duo qilishadi. Farzandlarga yoshligidan "Nonni ushatmay ye", "Nonni bosma", "Nonni ko'zingga sur" deya tarbiya berishadi. Bularning barchasi xalqimizda nonga bo'lgan e'tibor, o'zbekona qarashdan darak beradi. Chunki, bu qarashga ko'ra, nonni qadrlamaslik, unga nisbatan isrofgarchilik yo'qchilikka olib keladi, hatto bu gunoh ish sanaladi.

*Nafsi yomon hayitda o'lar.* Islom dinida nafsini tiyolmaydigan, badnafs kimsalar hamisha qoralanib kelgan. Chunki, diniy manbalarda ko'p yeyish qalbni o'ldiruvchi illat deya keltiriladi. Shunday qarashlar ta'sirida xalqimiz orasida ushbu maqol kelib chiqqan. Negaki, nafsini tiya olmaydigan inson bayramda (Hayit musulmon davlatlari uchun bayram sanaladi) o'ladi. Bayram bo'lgandan keyin to'kin-sochinlik bo'lishi tabiiy. Ushbu maqolda xalqimizga xos bo'lgan islomiy qarash o'z aksini topgan.

*Ona yurtiing – oltin beshiging.* O'zbek tilida beshik so'zi muqaddas. Chunki, yangi tug'ilgan chaqaloqni turli odat-u irimlari bilan beshikka yotqizishadi. Tom ma'noda aytganda, beshik deganda o'zbeklar Vatanini tushunadi. Bu so'z milliy ruh bilan sug'orilgan bo'lib, lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

*Qiz ammaga tortar, o'g'il – tog'aga.* Ma'lumki, maqollar xalq tajribasi, kuzatishlariga asoslanadi. Bu maqolda aynan ana shunday kuzatishlar natijasida kelib chiqqan o'zbecha qarash aks etgan. Ya'ni farzandlarning tashqi ko'rinishi, xarakteri nuqtai nazaridan kimga o'xshashi haqida xulosasi berilgan. Haqiqatdan ham qiz farzand ammaga, o'g'il esa tog'aga tortadi. Buni hayotimizda ham ko'plab uchratishimiz mumkin.

*Yaxshi gapga ham, yomon gapga ham farishta omin deydi.* Musulmonlarning dini sanalgan Islomda kishi har biri daqiqada yaxshi niyatda bo'lishi kerakligi uqtiriladi. Sababi bizning har bir aytgan so'zimizga

farishtalar omin deyishi mumkinligida. Agar beixtiyor sovuq nafas (niyat) qilib qo‘ysag-u, unga farishta omin deb qo‘ysa, holimizga voy. Shuning uchun o‘tayotgan har bir daqiqamizda Ollohga shukr qilib, yaxshi narsalarni ko‘zlab yashashimiz zarur. Bu qarash har birimizni qanoatli bo‘lishga undaydi. Bu maqolda ana shu diniy qarash orqali xalqimizning milliy o‘ziga xosligi ifodalangan.

*Yaxshi mehmon osh ustida.* Azal-azaldan mavjud bu maqol zamirida ham o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan holat aks ettirilgan. Oila dasturxon atrofida to‘planib o‘tirgan paytda kimdir kelib qolsa, unga qarata “Yaxshi mehmon osh ustida”, “Yaxshi kishi osh ustida keladi”, “Qaynonangiz sizni juda sevar ekan” kabi maqollarni qo‘llaymiz. Bunday holat o‘sha insonning yaxshi fazilatli ekanligidan dalolat beradi. Bu ham, albatta, xalqimizga xos bo‘lgan madaniyatning ifodasidir. Ya’ni o‘zbek madaniyati o‘zbek tilida o‘z aksini topgan.

*Yon qo‘shnim – jon qo‘shnim.* O‘zbeklarda qo‘shniga azal-azaldan kattta e‘tibor va hurmat qaralgan. Bir bolaga yetti mahalla ota-ona kabi maqollarning ham kelib chiqishi mana shunday hurmat va e‘tiborning natijasidir. Hatto, diniy manbalarda ham agar ovqat qilsang, hidi qo‘shningnikiga yetib borsa, o‘sha ovqatdan qo‘shniga ham berish kerak deyilgan. Shundan kelib chiqqan holda, dono xalqimiz “Yon qo‘shning-jon qo‘shning” deb atashgan. Bu maqolda ana shu o‘zbekona ruh va man’naviy qadriyat sezilib turadi.

*Yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga.* O‘zbek xalqida qariyalarni farishtaga qiyoslashadi. Shuning uchun qarisi bor uyning parisi bor deyishadi. Shu tufayli ham qariyalar qay vaqt kelmasin, ularni hurmatlab to‘riga o‘tirgizib, oshga tortishgan. Shuning uchun yosh kelsa – ishga, qari kelsa – oshga deyishgan. Bu maqolda garchi etalon ishtirok etmagan bo‘lsa-da, lekin o‘zbeklarga xos milliylik ruhi sezilib turadi.

Albatta, xalqimizda odob-axloqqa, yaxshilikka undovchi bu kabi stereotipik xarakterdagi birliklar ko‘plab uchraydi. Xalq bu kabi til birliklari mazmunidagi asos bilan farzandlarni tarbiyaga, kamolotga undaydi. Bu esa xalqning, millatning kelajagi uchun muhimdir.

### III bob bo'yicha xulosa

1. Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz chaqaloqqa ism qo'yishar ekan, uning baxti va omadi ismiga bog'liq deb hisoblashgan. Ushbu e'tiqod ismlar xosiyatli va xosiyatsiz bo'ladi, degan qarashni tug'dirgan. "Chaqaloqqa qo'yilgan ism uning taqdiriga ta'sir qiladi" deyilgan tasavvurlar davrlar o'tishi bilan ismni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog'langan, unga doimo va bir umr esh, hamdam bo'lib yuradigan vositaga aylantira borgan;

2. Etnologik tushunchalarga nisbat berilgan ismlarda esa, asosan, bolaning etnik kelib chiqishi e'tiborga olinadi. Bunda bolaning qaysi etnik guruhga mansubligini, o'sha etnos farzandi ekanini, uning o'tmish ajdodlari o'sha urug' yoki qabilaga mansubligini, chaqaloq o'shalarning davomchisi ekanini ta'kidlash ko'zda tutiladi. Bunday etnonimlardan yasalgan ismlar fanda etnoantroponimlar;

3. Ism-istaklar deyilganda farzandli bo'lgan ota-onaning, shuningdek, chaqaloqqa nom berishda ishtirok etayotgan qarindoshlar, yaqinlarning endigina dunyoga kelgan norasidaga izhor qiluvchi niyatlari, xilma-xil orzulari aks etgan ismlar tushuniladi. Bunday istaklar nihoyatda xilma-xil va ko'p qirrali bo'lib, ijobiy munosabat va manolarni ifodalaydi. Mana shunday hollarda bolaga berilayotgan ismning maqsadini aniq biror niyat, xohish, tilak, umid, ishinch tashkil qiladi. Ism tabiiy holda man ashu tilaklarni anglatuvchi so'zlardan tanlanadi;

4. Maqollar ham xalqning milliyligi, urf-odatlarini, asriy tajribalar natijasida chiqargan xulosalarini o'zida kas ettiruvchi xalq og'zaki ijodi namunasi sanaladi. Maqollarda ma'lum ma'noda millatning madaniyati aks etadi. Shu sababli o'zbek xalq maqollarini ham lingvokulturologiyaning obyektı – stereotip sifatida tahlil qilindi.

## XULOSA

1. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. Bugungi kunda insonlar, xalqlar, mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy hamda ilmiy aloqalar, xalqaromadaniy kommunikativ jarayonlar tilshunoslik sohasida tillarning o'zaro munosabati va til madaniyati hamda tilning milliy o'ziga xos ko'rinishi kabi qator va madaniyatshunoslik o'rtasidagi alohida spetsifik yo'nalishi va predmetiga ega bo'lgan yangi soha - lingvokulturologiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda;

2. Hozirgi kunda lingvokulturologiya tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biri ekan, u o'zining muayyan rivojlanish bosqichlariga ega. Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.V.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga sabab bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, A.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi ;

3. Milliy qadriyatlar turmush tarzimiz, ma'naviy qiyofamiz, muqaddas qadriyatlarimizni anglash, davlatchilik an'analarimizni tiklashga, xalqimizning istiqbol to'g'risidagi asriy orzularini ruyobga chiqarishga yordam beradi va bu borada xalqni xalq, millatni millat sifatida birlashtiradi. O'z qadriyatlarini bilgan va o'z milliylikiga hurmati bo'lgan xalq buyuk ishlarga qodir ekanini xis qiladi, istiqbolining qadriga yetadi, farzandlarining kamoloti uchun qayg'uradi;

4. Milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan, xalqimizni ma'naviy poklanishga yetaklaydigan asoslardan biridir. Xalqimizning avlodlardan-avlodlarga meros qilib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ularning o'tmishi uch ming yildan ortiq davrni o'zida mujassamlashtiradi. Xalqimiz Markaziy Osiyo sivilizatsiyasini yaratdi. Bizning milliy qadriyatlarimiz ana shu sivilizatsiyaga xos jihatlar: tug'ilgan makon va ona

yurtga mehr, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi.

5. Har qanday madaniyat o'zining dunyoni idrok qilishiga asoslangan, o'z tafakkuri va xulq-atvorining stereotipini shakllantiradi. Stereotip muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional boyoqdor va favqulodda barqaror bolgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir. Stereotip u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi;

6. Stereotip – muayyan guruh yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo'yoqdor va favqulodda barqaror bo'lgan obrazi, turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o'ziga xosligidir. Stereotip – u yoki bu xalqning milliy xarakteri haqida obyektiv ma'lumot beradi. V.A. Maslovaning ta'biricha, “stereotip dunyoda mavjud tip bo'lib, u faoliyat, xatti-harakat va hokazolarni belgilaydi. Stereotiplar hech qachon alohida kishilarda paydo bo'lmaydi, ular har doim guruhlarda yuzaga keladi”;

7. Stereotip hodisasi nafaqat tilshunoslarning ishlarida, balki sotsiologlar, etnograflar, kognitologlar, psixologlar va etnopsixologvistlarning ham tadqiqotlarida o'rganiladi. Ushbu fanlarning har qaysi vakili stereotiplarning xususiyatini o'z sohasining tadqiqoti nuqtayi nazaridan belgilaydi. Shunga ko'ra, ijtimoiy stereotiplar (kasbiga, yoshiga ko'ra), *muloqot stereotiplari, mental stereotiplar, madaniy stereotiplar, etnomadaniy stereotiplar* kabilarni tashkil etadi. Masalan, ijtimoiy stereotiplar shaxsning tafakkuri va muomalasini ko'rsatadi. *Etnomadaniy yoki milliy stereotiplar* eng ko'p o'rganilgan bo'lib, ular biror bir xalqqa xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni ifodalaydi;

8. Madaniy stereotiplar madaniyat egalarining ehtiyoji, tili, dini, madaniyati, tabiati, flora va faunasi, o'zgalardan ajralib turishga intilishlari, tanlovi o'laroq paydo bo'ladi va qat'iylashadi, o'zgarmas o'rin egallaydi; boshqa madaniy stereotiplardan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

9. Qadim-qadimdan ota-bobolarimiz chaqaloqqa ism qo'yishar ekan, uning baxti va omadi ismiga bog'liq deb hisoblashgan. Ushbu e'tiqod ismlar

xosiyatli va xosiyatsiz bo‘ladi, degan qarashni tug‘dirgan. “Chaqaloqqa qo‘yilgan ism uning taqdiriga ta’sir qiladi” deyilgan tasavvurlar davrlar o‘tishi bilan ismni bolaning himoyachisiga, unga qandaydir bog‘langan, unga doimo va bir umr esh, hamdam bo‘lib yuradigan vositaga aylantira borgan;

10. Etnologik tushunchalarga nisbat berilgan ismlarda esa, asosan, bolaning etnik kelib chiqishi e’tiborga olinadi. Bunda bolaning qaysi etnik guruhga mansubligini, o‘sha etnos farzandi ekanini, uning o‘tmish ajdodlari o‘sha urug‘ yoki qabilaga mansubligini, chaqaloq o‘shalarning davomchisi ekanini ta’kidlash ko‘zda tutiladi. Bunday etnonimlardan yasalgan ismlar fanda etnoantroponimlar;

11. Ism-istaklar deyilganda farzandli bo‘lgan ota-onaning, shuningdek, chaqaloqqa nom berishda ishtirok etayotgan qarindoshlar, yaqinlarning endigina dunyoga kelgan norasidaga izhor qiluvchi niyatlari, xilma-xil orzulari aks etgan ismlar tushuniladi. Bunday istaklar nihoyatda xilma-xil va ko‘p qirrali bo‘lib, ijobiy munosabat va manolarni ifodalaydi. Mana shunday hollarda bolaga berilayotgan ismning maqsadini aniq biror niyat, xohish, tilak, umid, ishinch tashkil qiladi. Ism tabiiy holda man ashu tilaklarni anglatuvchi so‘zlardan tanlanadi;

12. Maqollar ham xalqning milliyligi, urf-odatlarini, asriy tajribalar natijasida chiqargan xulosalarini o‘zida kas ettiruvchi xalq og‘zaki ijodi namunasi sanaladi. Maqollarda ma’lum ma’noda millatning madaniyati aks etadi. Shu sababli o‘zbek xalq maqollarini ham lingvokulturologiyaning obyektı – stereotip sifatida tahlil qilindi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. NORMATIV HUQUQIY HujjATLAR VA METODOLOGIK

#### AHAMIYATGA MOLIK NASHRLAR

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтариламиз. I жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 592 б.
2. Мирзиёев Ш. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 486 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Халқ сўзи, 2017, 8 февраль. № 28 (6722).

### II. MONOGRAFIYA, O‘QUV QO‘LLANMA, ILMIY MAQOLA, ILMIY TO‘PLAMLAR

1. Бартольд В.В. Сочинения. Том V. – М.: Наука, 1968.
2. Власова Е. А. Соотношение понятий «язык», «культура» и «картина мира» // Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2012. № 7 (18). Часть 1.
3. Воробьев В. В. Лингвокультурология: монография. М.: РУДН, 2008.
4. Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию. М.: Изд-во Прогресс, 1984. 396 с.
5. Ё.Одилов. Тил ва менталитет. // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2021. 3-сон. – Б. 43-49.
6. Жамолхонов Ҳ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Талқин, 2005.
7. Жанпейсов Э. Этнокультурная лексика казахского языка. – Алма-Ата: Наука, 1989.
8. Жуманазаров Э. Қирғиз ва ўзбекларнинг никоҳ тўйи удумлари тарихидан (XIX асрхири – XX аср) // Ўзбекистон тарихи. – 2001. -№3.

9. Жўраев М., Худойқулова Л. Маросимнома. Ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. – 172 б.
10. Жўраев М., Худойқулова Л. Сурхондарё тўй маросим фольклорининг ўзига хос хусусиятлари // ФарДУ ахборотномаси. – Фарғона, 2005. 3-сон. – Б. 29-32.
11. Кисляков Н.А. Очерки по истории семьи и брака у народов Средней Азии и Казахстана.
12. Кириллова Н. Н., Афанасьева А. Л. Практическое пособие по лингвокультурологии: французский язык. СПб.: Изд-во СПбГУ, 2008.
13. Косвен М.О. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. – Т., 1960.
14. Копыленко М.М. Основы этнолингвистики. – Алматы: Евразия, 1995.
15. Лобачева Н.Б. Формирование новой обрядности узбеков.
16. Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. - № 5. – Б. 10
17. Маслова В.А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: издательский центр “Академия”, 2001.
18. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2001. — 208 с.
19. Махмараимова Ш.Т. Лингвокультурология. – Тошкент: Чўлпон номидаги НМИУ, 2017.
20. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
21. Миртожиев М., Маҳмудов Н. Тил ва маданият. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. Б. 5
22. Откупшиков Ю.В. Диалектный материал и этимологии // Международный симпозиум по проблемам этимологии исторической лексикологии и лексикографии. Тезисы докладов. М., Наука, 1984.
23. Потенция А. Мысль и язык. Оглавление. Философия языка и мифа. – Харьков: Мирный труд, 1913.



24. Потебня А. А. Мысль и язык. М.: Лабиринт, 1999. – С.349.
25. Пропп В. Исторические корни волшебной сказки. Л.: Изд-во Ленинградского ун-та, [1946] 1986.
26. Сабитова З.К. Лингвокультурология: учебник. — М.: Флинта: Наука, 2013. — 528 с.
27. Сатторов М. Ўзбек удумлари.
28. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. — М.:1993.
29. Содиков Қ. Тарихий лексикография. – Тошкент, 2011
30. Сухарева О.А., Бикжанова М.А. Прошлое и настоящее селения Айкыран. – Т., 1955.
31. Телия В.Н. Русская фразеология. – М.:1982
32. Янги турмуш – янги анъаналар (тўплам). – Т.:Ўзбекистон, 1972.
33. Ashirov A. Etnologiya. Yangi nashr. – Toshkent: 2014. – B. 543.
34. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019.
35. Usmonova Sh. Tarjimaning lingvomadaniy aspektlari. – Toshkent: 2015. – Б.31.

### **III. DISSERTATSIYALAR VA DISSERTATSIYA AVTOREFERATLARI**

1. D.Xudoyberganova. O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini.Fil.fan.d-ri diss.toshkent,2015.
2. Sh.Maxmaraimova. O‘zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi.Fil.fan.d-ri (DSc) diss.Samarqand,2020.
3. B.Umurqulov. O‘zbek badiiy nasrining lingvo-uslubiy shakllanish asoslari.Fil.fan.d-ri (DSc)diss. Toshkent,2020.
4. Usmonov F. O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi: Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)diss.-Toshkent,2019, 21-bet.
5. Ҳақимов М. Ўзбек илмий матнининг синтагматик ва прагматик хусусиятлари: Филол. фан. н-ди.дисс. –Тошкент, 1993.

6. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ...дисс. –Тошкент, 2001.

7. Қурбаназарова Н. Сурхондарё воҳаси тўй маросими этнографизмларининг семантик табиати ва лингвомаданий тадқиқи. Фил.фан.бўйича фалсафа док.(PhD) дисс. – Термиз, 2021.

8. Ашуров Д.А. “Алпомиш” достонининг лингвокултурологик хусусиятлари”. Фил.фан.бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс-си. Наманган – 2021, 127,128-бетлар.

9. Мирзаалиев И.М. “Қадимги туркий халқлар мақоллар семантикаси ва стилистикаси”. Фил. фанл. бўйича (PhD)доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс-си. Тошкент – 2022, 154 бет, 14-бет.

10. Рустамова Д. “Метафорик эвфемизациянинг лингвокултурологик ва социопрагматик аспектлари” Филол. фан. бўйича фалсафа доктори. (PhD) автореф. – Тошкент, Фарғона, 2018. – В.50.

#### **IV. LUG‘ATLAR**

1. Большой энциклопедический словарь: языкознание / гл. ред. В. Н. Ярцева. – М.: Большая российская энциклопедия, 1998.

2. Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Русский язык, 1980. – С.

3. Жеребило Т.В. Словарь лингвистических терминов. 5-е изд., испр. и доп. — Назрань: Пилигрим, 2010.

4. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). — М.: Издательство ИКАР. Э. Г. Азимов, А. Н. Щукин. 2009.

5. Худойберганаева Д. Лингвокултурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.:Турон замин зиё, 2015.

6. Ю.А.Рубинчик. Персидско-русский словарь. Издательство Советская энциклопедия. – М: 1970 .

7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 1-том. – М.: Русский язык, 1981. – 631 б.

8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 томлик. 2-том. – М.: Русский язык, 1981. – 715 б.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, биринчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ нашриёти, 2006. – 680 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдли, иккинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2006. – 671 б.
11. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, учинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2007. – 687 б.
12. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, тўртинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2008. – 606 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 5 жилдлик, бешинчи жилд. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат нашриёти, 2008. – 591 б.
14. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси.

#### **INTERNET MANBALARI**

1. <https://diss.natlib.uz>
2. <https://natlib.uz>
3. <http://en.wikipedia.org/wiki>
4. <http://tpl1999.narod.ru/WebTPL2000/KlokovTPL2000.htm>
5. <http://www.lib.vsu.ru/elib/texts/217.pdf>.
6. <http://www.gramota.ru/book/ritorika/index3.htm>.
7. <http://www.NbuV.Cov.ua/portal/Sog-Gum/ls2008-17/dorofeyev/pdf>.
8. <http://www.ziyo-net.uz>
9. <http://www.kutubxona.uz>